

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HISOB VA AUDIT FAKULTETI

“AUDIT” KAFEDRASI

BURIYEVA MAFTUNA XIKMATULLO QIZI

**“HISOB-KITOB VA VALYUTA SCHYOTLARI MUOMALALARI
HISOBI VA AUDITI”**

5340900 -“Bugalteriya hisobi va audit”- ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Audit» kafedrası mudiri

_____i.f.n. prof. Sh.Fayziev

«__»_____2013 y.

Ilmiy rahbar: _____K.o'.Yakubov.M.M

«__»_____2013 y.

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA HISOB-KITOB VA VALYUTA SCHYOTLARI BO'YICHA MUOMALALAR HISOBI HAMDA AUDITINING NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda pul mablag'larini hisobga olishning zarurligi va ahamiyati	6
1.2. Hisob- kitob va valyuta schyotlaridagi pul mablag'lari harakati hisobi va auditining maqsadi, vazifalari hamda me'yoriy asoslari.....	12
II bob. HISOB-KITOB VA VALYUTA SCHYOTI BO'YICHA MUOMALAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI.....	19
2.1. Hisob- kitob schyotiga doir muomalalar hisobi.....	19
2.2 Valuta schyotiga doir muomalalar hisobi.....	27
III bob. HISOB-KITOB VA VALYUTA SCHYOTI BO'YICHA MUOMALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	36
3.1. Hisob- kitob va valyuta schyoti bo'yicha muomalalar auditini o'tkazishning hozirgi amaliyoti.....	36
3.2. Hisob- kitob va valyuta schyotiga doir muomalalar audit bo'yicha ichki nazoratni takomillashtirish.....	50
XULOSA.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	58
ILOVALAR.....	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash sharoitida turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshgani xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya faoliyatini takomillashtirish, ularning hisob-kitob va valyuta schyoti bilan bog'liq muomala munosabatlarini tartibga solishni taqazo etmoqda, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda. Oxirgi yillarda O'zbekiston oldingidan tubdan farq qiluvchi yangi iqtisodiy munosabatlarga asoslangan holda iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichlariga o'tib bormoqda.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «2013 yil va yaqin kelajakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rin tutishi darkor. Bu borada 2013 yil uchun ishlab chiqilgan va 370 dan ortiq strategik muhim loyihani amalga oshirishni ko'zda tutadigan Investitsiya dasturi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan 13 milliard dollarning 75 foizini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan mablag'lar, qolgan qismini jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar tashkil etadi»¹

Ma'lumki, yurtimizda jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'sirlariga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Jumladan, «Xalqaro valyuta jamg'armasining 2011 yil noyabr oyida mamlakatimizga tashrif buyurgan missiyasining bayonotida

¹ I.A.Karimov "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". – T.: O'zbekiston 2013y. 22 bet

O'zbekiston izchil o'sishga erishgani va global moliyaviy inqirozga qarshi muvaffaqiyatli choralar ko'rayotgani qayd etildi, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari saqlanib qolishi haqida ijobiy prognoz bildirildi"². Hozirgi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda, o'z navbatida, davlat byudjetining daromad qismi ham oshmoqda. Bu kabi iqtisodiy o'zgarishlar mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, pul-valyuta va to'lov intizomini mustahkamlanib borishiga asos bo'lmoqda. Shular bilan birgalikda pul-valyuta resurslaridan samarali foydalanishda, to'lov intizomini bozor talablariga moslashtirishda ma'lum kamchiliklar, bu sohada to'liq foydalanilmagan ichki imkoniyatlar bor. Shular jumlasiga pul mablag'lari, hisob-kitob va valyuta operatsiyalarini uzluksiz tartibda hisobga olib borish, ularning nazoratini doimiy ravishda takomillashtirish dolzarb masalalardandir.

Shu nuqtai nazarga ko'ra ham hisob-kitob va valyuta schyoti muomalalarini hisobi va auditi har tomonlama o'rganishni talab etadigan muammolardan hisoblanadi

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlari hisob-kitob va valyuta schyotlari bo'yicha muomalalari hisobi hamda auditini tashkil etishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish asosida ularni tashkil etish va auditini o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bitiruv malakaviy ishining maqsadini tashkil qiladi. Hisob-kitob va valyuta schyotlari bo'yicha muomalalarning hisobi hamda auditining hozirgi holatini o'rganish hamda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida auditning yangi usullarini o'zlashtirish orqali muomalalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab olindi:

² Islom Karimov. 2012 yil " Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi" T.: "O'zbekiston" . 2012 yil,-5-bet

- hisob-kitob va valyuta schyoti bo'yicha muomalalarni hisobi hamda auditini tashkil etishning nazariy asoslarini o'rganish;
- hisob-kitob va valyuta schyoti bo'yicha muomalalarni hisobi hamda auditini o'tkazishni takomillashtirish;
- yuqorida keltirilgan masalalardan kelib chiqqan holda respublikamizda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni hisob-kitob va valyuta schyotlari bilan bog'liq muomalalarni hisobi hamda auditini tashkil etishning usullarini aniqlash va amaliyotga tadbiq qilish imkoniyatlarini o'rganib chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti qilib "NAVOIYSUVQURILISH" OAJ ma'lumotlari olindi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy uslubiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari , O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, nutqlari va maqolalarida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakat xalqaro iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirishga oid masalalari bo'yicha bayon etgan xulosalaridan muhim manba sifatida foydalanildi. Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishida asos bo'lib O'zR Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to'g'risida"gi Nizomi, Moliya Vazirligi nizom va yo'riqnomalaridan foydalanildi. Bundan tashqari tadqiqot jarayonida rivojlangan xorij mamlakatlarida auditni tashkil etish tajribalari o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob va 6 ta paragrafdan, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi __ betni tashkil etadi, tarkibida 8 ta jadval, 4 ta chizma, 5 ta ilova mavjud.

I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA HISOB- KITOB VA VALYUTA SCHYOLARI BO'YICHA MUOMALALARI HISOBI VA AUDITINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi

sub'ektlarda pul mablag'larini hisobga olishning zarurligi va ahamiyati

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar puxta o'ylangan qat'iy va aniq rejalar asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimizda mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo'lgani kabi buxgalteriya sohasida ham bir qator tarkibiy o'zgarishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, amal qilib kelingan hisob tizimi, uning uslubiy asosi va bosh vazifasi bevosita, mulkiy butlik va uni doimiy nazorat qilib turish qoidasi asosida qurilgan edi. Natijada uzoq yillar davomida hisob tizimida bir xillik, umumiylik va muomalalar mazmunining takroriyliigi amal qilib keldi. Hisob tizimining bugungi mazmuni, kuzatuv o'rni va vazifalari esa ancha boyidi. Hisob tizimida eng katta o'zgarish shu bo'ldiki, amalda milliy xisob tizimini yaratishga kirishildi.

Respublikamiz korxonalarida hisob va hisobot ishlarini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Hususan, buxgalteriya hisobotini tuzish uslubiyatida va hisobot shakllarida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga, iqtisodiy-moliyaviy holatiga, pul mablag'lari harakatiga e'tibor kuchaytirildi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida naqd pulsiz hisob- kitoblardan samarali foydalanish korxonalar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishining ta'minlovchi asosiy omillaridan biridir. Chunki korxonalar faoliyatining uzluksiz davom etishini ta'minlash uchun zarur ishlab chiqarish zaxiralari va mehnat vositalari sotib olish, davlat byudjetidan tashqari fondlar uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun ma'lum miqdorda naqd pulsiz hisob- kitoblar talab qilinadi. Shuning uchun ham korxonalar mavjud pul mablag'larini yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga

sarflashda iqtisodiy jihatdan manfaatli va tejamli bo'lgan hamda korxonaga o'z mablag'laridan samarali foydalanish imkonini berishni birinchi navbatda hisobga olish zarur. Yuqoridagi fikr va mulohazalar ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi va bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning pul mablag'lari va ularning xarajati to'grisidagi boshqaruv apparati uchun zarur ma'lumotlarni buxgalteriyada shakllantirish masalalarini o'rgatadi.

Ma'lumki, iqtisodiyotni rivojlanishining barcha bosqichlarida naqd pulsiz hisob-kitoblar alohida ahamiyatga ega bo'lgan va ularni hisobga olish tartibi o'sha davrdagi iqtisodiyotning rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan. Chunki har qanday bosqichda iqtisodiyotning rivojlanishi u yoki bu modeliga amal qilgan va uning ajralmas qismi sifatida esa buxgalteriya hisobi ishtirok etgan. Taraqqiyotning yuqori pog'onasiga ko'tarilish esa har doim iqtisodiyot fanlarining, chunki, buxgalteriya hisobining rivojlanishi ham belgilab bergan va ular ham ta'sir etgan. Bozor munosabatlarning shakllanishi va uning chuqurlashuvi naqd pulsiz hisob- kitoblar hisobining uslubiy asoslari va ularning harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning sifat jihatidan o'zgarishini talab qilmoqda. Shuning uchun ham naqd pulsiz hisob- kitoblarning hisobini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishni talab qildi. Shu asosda Respublikamizda naqd pulsiz hisob- kitoblar hisobini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlar oxirgi yillarda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi va bu buxgalteriya hisobining uslubiy asoslarini to'la isloh qilinishini ta'minlay olmaydi. Chunki asosiy e'tibor tashqi foydalanuvchilarni qiziqtiradigan ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga qaratildi va bu borada ancha muvaffaqiyatlarga ham erishildi. To'g'rirog'i naqd pulsiz hisob-kitoblarni xalqaro andoza talablariga ancha yaqinlashtiradi va ularni hisoblash uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlovchi buxgalteriya hisobi esa eskicha qolaveradi.

Korxona amalga oshiradigan har qanday faoliyat turi pul mablag'larini talab qiladi. Korxona pul mablag'lari asosida maxsulot, ish va xizmatlarni sotishdan, shuningdek qimmatbaho qog'ozlarni va mol- mulkni sotishdan kelib tushadi. Yangi tashkil

bo'layotgan korxonalarga esa ta'sischi ustav kapitalini shakllantirish uchun bankdagi hisoblash schyotiga naqd pul topshirishi yoki o'tkazib berish (yuridik shaxslar) mumkin. Korxona o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini o'zining asosiy va qo'shimcha faoliyatini rivojlantirish, tovar moddiy qiymatliklarini sotib olish, ishchi va xizmatchilarga ish xaqi to'lash, kapital qo'yilmalarni (ishlab chiqarish va madaniy-maishiy ob'ektlarni qurish, avtomobillar, traktorlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish, ko'p yillik mevali va manzarali daraxtlarni o'tkazish va o'stirish, shuningdek asosiy podani tashkil qilish) o'zlashtirish va davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarga va boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatgan xizmatlari uchun xo'jalik sub'ektlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonuniyatlar va me'yoriy hujjatlarda qilinmagan maqsadlarga sarflash mumkin.

Yuridik shaxslarning pul mablag'larining tashkil topishi, saqlanishi va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan nazorat qilinadi. 1998 yil 12 dekabrda ro'yxatga olingan va 1998 yil 24 yanvarda O'zbekiston Adliya Vazirligi tomonidan tasdiklangan "Yuridik shaxslarning kassa muammolarini yuritish qoidolari"da batafsil yoritib berilgan.

Pul mablag'larining qaysi manbalardan tashkil topishi va ularning sarflanishini asosiy ahamiyati esa "Buxgalteriya hisobi to'grisidagi" O'zbekiston Respublikasining qonuni asosida ishlab chiqilgan va buxgalteriya hisobining Milliy andozalarining 9-son "Pul oqimlari to'g'risida hisobot"ida aniq ko'rsatilib o'tilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 16- oktyabrda tasdiqlangan va O'zbekiston Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 4- oktyabrda ro'yxatga olingan.

Pul mablag'larining saqlanishi va ularning to'g'ri foydalanish javobgarligi korxona rahbari va buxgalteriga yuklatiladi. Ular kassa va bank muammolari qoidalariga rioya qilishi va ularni belgilangan qat'iy tartibda to'g'ri rasmiylashtirishlari zarur. Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo'lganligi uchun korxona mablag'lari bir vaqtning o'zida aylanishning barcha bosqichida bo'lishi mumkin, bunda pul mablag'lari korxona

iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari ta'minotchi ishlab chiqarish va sotish bosqichlarida pul mablag'lari u yoki bu miqdorda sarflanadi. Shuning uchun ham korxonada doimo ma'lum miqdorda pul mablag'larini bo'lishi taqazo etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan ularning to'lov qobiliyatiga bog'likdir.

Ma'lumki, to'lov qobiliyatining mazmuni eng avvalo bo'sh pul mablag'larining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Chunki pul mablag'lari eng yuqori likvidlikka ega bo'lgan aktivlar hisoblanadi. Shuning uchun ham korxonalarda mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanish uchun ularni oborotga kiritish alohida ahamiyatga ega. Umuman, korxonalarning pul mablag'larining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Pul qiymat o'lchovi bo'lib- bu tovarning ma'lum qiymatidagi pul summasiga tengligini ko'rsatadi va tovar qiymatining miqdori hisoblanadi. Pulda ifodalangan tovar qiymatining bahosi hisoblanadi. Qiymat o'lchovi vazifasi asosan baho orqali amalga oshiriladi. Uning yordami bilan korxona ishlab chiqqan tovarning qiymati bozor bahosi uchun asos bo'ladi va mamlakatning milliy valyutasida va uning boshqa mamlakatlar valyutalariga tenglashtirilgan holda aks ettiriladi.

2. Korxonalarning pul mablag'lari muomala jarayonida ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan resurslarni sotib olish va ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ish hajmlari uchun to'lov vositasi hisoblanadi.

Pulga korxona hamma zarur resurslarni sotib olish va barcha to'lovlarni amalga oshirishi mumkin. U xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi barcha hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi universal o'lchovdir.

3. Pul jamg'arish vositasini bajarganda boylik to'plashga xizmat qiladi. Albatta, pul boylikning asosiy shakli, lekin uning yagona shakli emas, ammo pul boylik to'plashning eng qulay vositasi hisoblanadi. Ammo buning uchun pul qadrli bo'lishi kerak. Respublikamizning milliy valyutasini qadrli bo'lishini ta'minlash mamlakatimizning eng asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala

bo'yicha mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday deb ta'kidlagan edi: "Qachon milliy valyuta kuchli va obruli bo'lsa, iqtisodiyot o'shandagina mukammal bo'ladi".³

Korxonalarning bankdagi hisoblashish schyoti va valyuta schyotlarida saqlanayotgan pul mablag'lari mamlakatimiz iqtisodiyotining poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki ular banklarni aktiv operatsiyalarini jonlantirishini ta'minlaydi, milliy va chet el valyutalarining ishlab chiqarish jarayonidagi aylanishini ta'minlaydi va u bunda birdaniga ikkita muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, korxonalarning ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish yo'li bilan pulning aylanishini ta'minlaydi va milliy valyuta hisobiga yaratilayotgan yalpi ichki maxsulot va yalpi milliy daromadni o'sishini ta'minlaydi. Ikkinchidan esa, korxonaning hisoblashish va valyuta schyotlari pul mablag'larini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilganligi uchun bank o'z mijozlariga ham ma'lum miqdorda haq to'laydi.

Shunday qilib, pulning birinchi vazifasi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi vazifasi esa korxonalarga ma'lum miqdorda daromad keltiradi.

Pul to'lov vazifasini ham bajaradi. Bunda pul korxona mol yuboruvchilar, pudratchilar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlariga va davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarga bo'lgan qarz majburiyatlarini bajaradi. Pul mablag'larining korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni uning asosiy vazifalarini bajarish uchun buxgalteriya hisobi boshqaruv apparatini tegishli ma'lumotlar to'plami bilan ta'minlanishi zarur. Buning uchun esa pul mablag'lari hisobining oldida quyidagi asosiy vazifalar turadi:

- korxonaning pul mablag'larini samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash;

³ I. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarini chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995. 217-bet.

- to'lov va hisob-kitoblarni pul muomalalarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan tartiblarga rioya qilgan holda o'z vaqtida amalga oshirish;
- hisob registrlarida pul mablag'larini naqdligi va harakatlarini o'z vaqtida aks ettirish, chunki pul mablag'larining harakati korxonaning faollik darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.
- pul mablag'larining inventarizatsiyasini belgilangan muddatlarda o'tkazishini ta'minlash va o'zaro hisob-kitoblar, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni to'lanishini nazorat qilish;
- kassadagi, hisoblashish, valyuta va bankdagi boshqa schyotlarda saqlanayotgan pul mablag'larining saqlanishining nazoratini ta'minlash;

Pul mablag'lariga moliyaviy muassasalardagi joriy schyotdagi qoldiqlar, naqd kupyuralar, tangalar, valyutalar, kichik kassaning naqd pullari va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar va muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan, sub'ektning kassasidagi konkret o'tkazib beriladigan pul hujjatlaridir (depozit schyotlar xam pul mablag'lari sifatida ko'riladi. Ushbu masalalarning muvaffaqiyatli bajarilishi korxonaning pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlovchi boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Albatta, yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun pul mablag'larining buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish zarur bo'ladi. Buning uchun esa korxonalarda mavjud mablag'larni turkumlash alohida ahamiyatga egadir.

1.2. HISOB-KITOB VA VALYUTA SCHYOTLARIDAGI PUL MABLAG'LARI HARAKATI HISOB VA AUDITNING MAQSADI, VAZIFALARI HAMDA AXBOROT MANBALARI

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektdan hisob-kitob va valyuta schyotidagi mablag'laridan samarali foydalanishni taqazo qilinadi. Korxona va tashkilotlarda bu mablag'lardan to'g'ri va samarali foydalanish

ularning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, qolaversa, xorijiy kompaniyalar bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning hisob-kitob va valyuta schyoti mablag'laridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishda, avvalo, ularning auditiga muhim e'tibor qaratish lozim.

Malumki, korxonalar hisob-kitob va valyuta schyotlari orqali boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradilar. Ularni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning asosiy maqsadi bankdagi hisob-kitob schyoti, valyuta schyotlariga doir muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazib, moliyaviy hisobotning «Pul mablag'lari» bo'limi bo'yicha ma'lumotlarning ishonchliligi va bankdagi schyotlarda pul mablag'larini hisobga olish uslubiylotining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida xulosa shakllantirish, ular saqlanishi va ishlatilishining maqsadga muvofiqligi, samaradorligi hamda qonuniyligini ta'minlash, shuningdek hisobga olishni takomillashtirishdan iborat.

Hozirgi kunga kelib, yuridik shaxs sifati faoliyat ko'rsatayotgan va mustaqil balansiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tijorat banklaridan birida o'zlarining hisob-kitob schyotini ochishlari mumkin. Markaziy Bank yo'riqnomasiga binoan korxona o'zi tanlagan bankda pul mablag'larini saqlash, barcha turdagi hisob-kitoblarni, kredit va kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun so'mda va talab qilib olgungacha valuta depozit schyotini ochishlari mumkin.

Barcha hujjatlar topshirilgandan so'ng bank xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolanadi va bank boshqaruvchisining buyrug'i bilan korxonaga tegishli hisob-kitob schyoti raqami belgilanadi va bankning buxgalteriya apparati tomonidan pul mablag'lari harakatini hisobga olish uchun shaxsiy schyot ochiladi.

Xo'jaliklarda mavjud pul mablag'laridan maqsadli foydalanish va ularni samarali boshqarish, shuningdek, olinadigan mablag'lar va majburiyatlarni o'z vaqtida so'ndirish buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilinadi. Shu boisdan, ushbu nazoratni


to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etishda uning oldiga bir qator vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- pul mablag'lari va hisob–kitob operatsiyalarini o'z vaqtida tegishli hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirib borish;
- kassadagi kirim va chiqim qilinayotgan mablag'larni to'g'ri rasmiylashtirish hamda ularni kassa daftarida qayd qilib borish;
- kassadagi naqd pul mablag'lari va unga ekvivalent bo'lgan pul hujjatlari, qimmatli qog'ozlarning butligini kundalik nazorat qilib borish;
- pul mablag'laridan to'g'ri foydalanish va ularning maqsadli sarflanishini doimiy nazorat qilish;
- budjet, budjetdan tashqari mablag'lar, banklar, xodimlar va boshqa tashkilotlar, xaridor va buyurtmachilar bilan shartnomada belgilangan to'lov shakllariga amal qilib borishni nazorat qilish;
- qarzlarni qaytarish muddatidan o'tkazib yubormaslik maqsadida debitor va kreditorlar o'rtasidagi o'zaro hisob – kitoblarni o'z vaqtida taqqoslama dalolatnomalar bilan rasmiylashtirish hamda uni so'ndirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;
- xo'jalikning pul mablag'lari harakatini oldindan prognozlash va pul oqimini me'yorlashtirish bo'yicha tegishli tadbirlar ishlab chiqishda iboratdir.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xo'jalik yuritishning turli mulkchilikka hamda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga moslashish jarayoni jadallik bilan amalga oshirila boshlandi.

Respublikamiz korxonalarida hisob va hisobot ishlarini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Hususan, buxgalteriya hisobotini tuzish uslubiyatida va hisobot shakllarida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga, iqtisodiy-moliyaviy holatiga, pul mablag'lari harakatiga e'tibor kuchaytirildi.

Hozirgi kunga qadar buxgalteriya hisobini, hususan, uning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan hisob-kitob schyoti muomalalari hisobini tartibga solishga oid bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bulardan eng asosiylari quyidagilardir:



1-chizma. Hisob-kitob schyoti muomalalari hisobini tartibga solishga oid me'yoriy – huquqiy hujjatlar⁴

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning hisob-kitob va valyuta schyoti mablag'laridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishda, avvalo, ularining auditiga muhim e'tibor qaratish lozim. Malumki, korxonalar hisob-kitob va valyuta schyotlari orqali boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradilar. Ularni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning asosiy maqsadi bankdagi hisob-kitob schyoti, valyuta schyotlariga doir muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazib, moliyaviy hisobotning «Pul mablag'lari» bo'limi bo'yicha ma'lumotlarning ishonchliligi va bankdagi schyotlarda pul mablag'larini hisobga olish uslubiyotining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi

⁴ Manba. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. G'ulomova.F.G' TOSHKENT-"NORMA"-2010.

to'g'risida xulosa shakllantirish, ular saqlanishi va ishlatilishining maqsadga muvofiqligi, samaradorligi

hamda qonuniyligini ta'minlash, shuningdek hisobga olishni takomillashtirishdan iborat.

Korxonalar faoliyatida hisob-kitob va valyuta schyotlari va ular bilan bog'liq operatsiyalar alohida o'rin tutadi. Chunki, korxonalarning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larining asosiy qismi bankdagi "hisob-kitob" schyotida saqlanadi. Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'larini audit qilishda quyidagilarga e'tibor berish zarurdir:

- bank ko'chirmalari va ularga ilova qilingan hujjatlarning to'g'riligiga;
 - hujjatlarda bank muhri(shtampi)ning mavjudligiga;
 - naqd topshirilgan pul mablag'larining bank tomonidan to'liq qabul qilinganligiga;
 - aloqa muassasalari orqali bankdan ish haqiga va boshqa maqsadlar uchun olingan summalarining to'g'ri hisobga olib borilishiga;
 - bank cheklaridan to'g'ri foydalanganligiga;
 - bank operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi yozuvlarining to'g'riligiga;
- hisob-kitob schyoti bo'yicha joriy hisob ma'lumotlarining oborot vedomosti, balans, Bosh kitob hamda "Pul oqimlari to'g'risida hisobot" ma'lumotlariga nechog'lik mosligiga.

Auditor tekshirish jarayonida, albatta, o'z ishini hujjatlashtirishi lozim. Ushbu talab O'zbekiston Respublikasi milliy audit standartlarida qo'yilgan bo'lib, №6 AFMSGa muvofiq auditor olgan ma'lumotlarini hujjatlashtirishi, ya'ni tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ish hujjatlarida aks ettirmog'i lozim. Ushbu standartning 8-moddasiga muvofiq ish hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- audit o'tkazish reja dasturlari;
- auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llanilgan uslublarni va ular natijalarini mazmuni;
- xo'jalik sub'yektining tushuntirish, izoh va arizalari;

- xo‘jalik sub’yektini hujjatlarini nusxalari, jumladan fotonusxalari;
- xo‘jalik sub’yektini buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi va ichki nazorat tizimini tuzilishini batafsil bayoni;
- auditorlik tashkilotini tahliliy hujjatlari;
- boshqa hujjatlar.

Bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalarni tekshirishda auditor quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalanadi:

- hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyruqning pul mablag'lari hisobiga doir bo'limi;
- bankdagi hisob-kitob, valyuta va boshqa maxsus schyotlar bo'yicha muomalalarni amalga oshirishni va ushbu muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida Nizom (yangi tahriri)(O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida ro'yxatga olingan №496, 8 oktyabr 1999 y);
- buxgalteriya hisobotlari (buxgalteriya balansi (1-shakl) va pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl);
- soliq hisoboti (so'mdagi va chet el valyutasidagi schyotlar to'g'risida ma'lumot);
- bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalarni hisobga oladigan sintetik hisob registrlari;
- bankdagi schyotlarga doir muomalalarni rasmiylashtiradigan dastlabki hujjatlar;
- bankdagi schyotlarga doir muomalalarni aks ettirish uchun qo'llaniladigan ishchi schyotlar rejasi;
- buxgalteriya hisobining korxonada qo'llaniladigan shakli va bankdagi schyotlardagi mablag'larni hisobga olishga doir registrlar ro'yxati;
- bankdagi schyotlardagi pul mablag'larini hisobga olish bilan bog'liq bo'lgan dastlabki hujjatlarning hujjatlar aylanish grafigi;

- bankdagi schyotlarga doir muomalalar bo'yicha pul va hisob-kitob hujjatlarini imzolash huquqiga ega shaxslar ro'yxati.

Korxona va firmalar xorijiy valyutalardagi pul mablag'larining to'liq kiringa olinishini aniqlash va valyuta muomalalarining hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish muhim masala hisoblanadi. Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida mahsulot (ish, xizmat) eksportidan daromad oladilar, import tovarlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradilar, xorijga xizmat safarlari bo'yicha sarflarni to'laydilar va O'zbekistonda hamda chet ellardagi banklarda ochilgan valyuta schyotlari orqali boshqa muomalalarni amalga oshiradilar. Banklarda valyuta schyotlarini ochish tartibi va ular bo'yicha muomalalarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi hamda Markaziy Bankining me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bank hujjatlarida xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha qoldiqlar va muomalalar milliy valyuta va chet el valyutalari turlari: AQSh dollari, nemis markasi, ingliz funt sterlingi va h. k. bo'yicha ko'rsatiladi.

Bankdagi valyuta schyotlari bo'yicha muomalalarni tekshirish chog'ida auditor quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- joriy valyuta muomalalari va kapitalning harakati bilan bog'liq valyuta muomalalari huquqiy rejimiga rioya qilinishi;
- valyuta muomalalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining litsenziyasiga ega bo'lgan, vakolatli banklar orqali valyuta muomalalarini amalga oshirish;
- vakolatli banklarda ayrim valyuta muomalalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan beriladigan ruxsatnomalar va litsenziyalarning mavjudligi;
- yuridik shaxs-rezidentlar tomonidan ular ixtiyorida mavjud bo'lgan, legal kelib chiqishga ega valyuta mablag'lari chegarasida chet el valyutasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- 5210-«Mamlakatimizdagi valyuta schyotlari» schyoti bo'yicha ochilgan «Tranzit valyuta schyotlari», «Maxsus tranzit valyuta schyotlari», «Joriy valyuta schyotlari», «Xorijdagi valyuta schetlari» subschyotlaridagi valyuta mablag'lariga doir muomalalar hisobi.

Valyuta schyotlari bo'yicha muomalalarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish bankda ochilgan, shu jumladan chet ellardagi ham, har bir valyuta schyoti bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, agar O'zbekiston korxona sining xorijiy bankda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki litsenziyasi bo'yicha ochilgan schyoti bo'lsa, bu litsenziya unga valyuta tushumini qabul qilish uchun asos bo'la olmaydi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida xorijiy bankdagi schyotga valyutani har bir kirimi uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi lozim.

Valyuta operatsiyalarining buxgalteriya hisobi chet el valyutasining har bir turi (AQSh dollari, funt sterling, evro va boshqalar) bo'yicha alohida olib boriladi va xo'jalik operatsiyalari amalga oshirilgan sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan kurs bo'yicha «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» va «Chet eldagi valyuta schyotlari» schyotlarida so'm ekvivalentida aks ettiriladi».

II bob. HISOB- KITOB VA VALYUTA SCHYOTI BO'YICHA MUOMALALAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI

2.1. Hisob kitob schyotiga doir muomalalar hisobi

Yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatayotgan va mustaqil balansiga ega bo'lgan korxonalar tijorat banklaridan birida o'zlarining hisob–kitob schyotini ochadilar. Markaziy Bank yo'riqnomasiga binoan korxona o'zi tanlagan bankda pul mablag'larini saqlash, barcha turdagi hisob-kitoblarni, kredit va kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun so'mda va talab qilib olgungacha valuta depozit schyotini ochishlari mumkin.⁵

Talab qilib olgungacha bo'lgan so'mdagi depozit schyotlarini ochish uchun yuridik shaxs – rezidentlar bankka quyidagi hujjatlarni topshiradilar:

- yuqorida keltirilgan yo'riqnomaning 1 – ilovasida keltirilgan shaklda schyot ochish uchun ariza;
- statistika organlari tomonidan korxonalar, tashkilotlarning yagona davlat ro'yxatiga kiritilganligi to'g'risidagi notariusda tasdiqlangan guvohnomaning ko'chirmasi;
- yuqori organ yoki ta'sischi majlisida tasdiqlangan ustav yoki nizomdan notariusda tasdiqlangan ko'chirma, davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida hujjat;
- notariusda tasdiqlangan ko'chirma yoki qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga oluvchi organ tomonidan tasdiqlangan ko'chirma.
- Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat faqat mazkur obyekt uchun qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lsa topshiriladi; soliq organida ro'yxatdan o'tganligi va identifikatsiyalashgan soliq to'lovchi

⁵ O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida yo'riqnoma. O'zR AV 29.09.2003 y. 1080-1-son bilan ro'yxatga olingan.

raqami berilganligi to'g'risida notariusda tasdiqlangan guvohnoma ko'chirmasi yoki shaxs soliq to'lovchi subyekt emasligi to'g'risida ma'lumot;

- imzo namunalari va muhrning izi tushirilgan kartochka;
- yuqorida aytib o'tilgan yo'riqnomada belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Davlat korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari, qishloq xo'jalik shirkatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, uyushmalar, birlashmalar, konsernlar, korporasiyalar, qo'shma korxonalar tomonidan talab qilib olguncha deposit schyotlarini ochish uchun zikir qilingan hujjatlarga qo'shimcha qilib bankka yuqorida keltirilgan yo'riqnomaga binoan yana boshqa hujjatlar topshiradilar.

Barcha hujjatlar topshirilgandan so'ng bank xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolanadi va bank boshqaruvchisining buyrug'i bilan korxonaga tegishli hisob-kitob schyoti raqami belgilanadi va bankning buxgalteriya apparati tomonidan pul mablag'lari harakatini hisobga olish uchun shaxsiy schyot ochiladi. Boshqa shahar yoki aholi punktlarida joylashgan xo'jalik hisobida bo'lmagan filiallar, magazinlar, ishlab chiqarish birligi va boshqa bo'linmalarga mahalliy bank muassasasida cheklangan operatsiyalarni aks ettirish uchun joriy schyot ochiladi. Bu cheklanish asosiy hisob-kitob schyotini idora qiluvchi bosh korxona tomonidan belgilanadi.


Ochilgan hisob-kitob schyotida bo'sh pul mablag'lari va mahsulot (ish va xizmat) lar sotishdan tushgan pul, bankdan olingan uzoq va qisqa muddatli kreditlar hamda boshqa tushumlar saqlanadi.

Hisob – kitob schyotida korxonaning olingan materiallar, asosiy vositalar uchun mol yetkasib beruvchilarga to'lanmalar, byudjetdan, ijtimoiy sug'urtadan bo'lgan qarzni to'lash, ish haqi berish uchun kassaga olingan pul va boshqa zaruriyatlar uchun to'langan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Hisob-kitob schyoti bo'yicha sodir bo'ladigan operatsiyalarni hisobga olish uchun korxonada 5110 - «Hisob-kitob schyoti» ochiladi. Bu schyot aktiv bo'lib, uning debetida hisob-kitob schyotiga tushgan barcha tushumlar, kreditida esa - hisob-kitob schyotidan barcha sarflangan pul mablag'lari aks ettiriladi. Bu schyotning debet

saldosi hisob-kitob schyotida pul mablag'larining qolgan qoldig'ini ko'rsatadi. Bu schyotda boshqa aktiv schyotlar kabi kredit qoldiq bo'lmaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy faoliyati yuzasidan hisob-kitob schyotiga mablag' quyidagi hollarda kelib tushadi:




2-chizma. Hisob-kitob schyotiga mablag'larning kelib tushish manbalari.⁶

Bank muassasasi xo'jalik yurituvchi sub'yekt hisob-kitob schyotida qolgan mablag' chegarasida uning egasining ko'rsatmalarini bajaradi, ya'ni hisob-kitob schyotidan mablag' beradi yoki o'tkazadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'z majburiyatlarini o'z vaqtida to'lashi lozim.

Odatda, bank tomonidan har qanday pul o'tkazib berish yoki naqd pul berish korxona yoki hisob-kitob schyotini tasarruf etuvchining buyrug'i yoki u bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Hisob-kitob schyotidan quyidagi hollarda pul to'lanishi mumkin:

⁶ Manba: I.K.Ochilov, J.Qurbonboyev. "Moliyaviy hisob" O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD-MOLIYA".2007 yil.56-bet.



3-chizma. Hisob-kitob schyotidan mablag'larning chiqib ketishi⁷

“NAVOIYSUVQURILISH” OAJning xisob-kitob schyoti muomalalarini quyidagilar asosida ko'rib o'tamiz:

Tovarlarni jo'natish va pul mablag'larini hisob-kitob varaqlariga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan muomalalar buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

-tovarlar jo'natilishi, sotilishi bilan mol yuboruvchida:

D-t 4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

K-t 9010, 9020. “Tovarlarni sotilishidan daromad”

-mol yuboruvchida hisob-kitob schyotiga pul o'tkazilganda:

D-t 5110-“ Hisob-kitob schyoti”

K-t 4010 –“ Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”.

-materiallar kelib tushishi bilan mol oluvchilarda:

D-t 1010-“Xom- ashy ova materiallar”

K-t 6010 –“ Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar”

⁷ Manba: I.K.Ochilov, J.Qurbonboyev. “Moliyaviy hisob” O'quv qo'llanma-T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2007 yil.56-bet.

-mol sotib oluvchida hisob-kitob schyotidan pul o'tkazilganda:

D-t 6010 –“Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar”

K-t 5110- “ Hisob-kitob schyoti”

Korxonaning hisob-kitob schyotidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning o'zaro bog'liqligini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Hisob –kitob schyotidagi pul mablag'larini hisobiga oluvchi schyotlarning bog'lanishi⁸

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		D-t	K-t
1	Ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha ijarachidan ijara to'lovlarining kelib tushishi	5110	4810, 4820
2	Tovarlarni kreditga sotishdan tushgan pullar	5110	4710
3	Mahsulot(ish,xizmat)lar, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishidan tushgan tushum	5110	4010
4	Pul mablag'larini kassadan hisob-kitob schyotiga topshirilishi	5110	4010
5	Chet el valyutasini sotib olish uchun pul mablag'lari o'tkazilishi	5530	5110
6	Bankka qaytarilgan chek va akkreditivlar bo'yicha summalar bo'yicha hisob-kitob schyotiga o'tqazilishi	5110	5510, 5520
7	Ilgari qisqa muddatli investitsiya tartibida beriladigan qarzlarning qaytarilishi	5110	5830
8	Ilgari berilgan bo'nak qaytarilishi	5110	5830
9	Qondirilgan da'volar summasining kelib tushishi	5110	4860
10	Olingan bo'nak summalari	5110	6310- 6390
11	Ilgari aksiyaga obuna bo'lgan ta'sischilardan ulush summasining kelib tushishi	5110	4610
12	Nominal qiymatdan yuqori bahoda sotilgan	5110	8410

⁸ Do'smuratov R.D., Fayziev SH.N. Audit. O'quv qo'llanma. I,II qism - T.: «Iqtisod-moliya», 2008.

	aksiyalardan emission daromadning kelib tushishi		
13	Bankdan kassaga pul mablag'lari kelib tushishi(mehnat haqi,nafaqa,mukofot va shu kabilarni berish uchun)	5010	5110
14	Xususiy aksiyalarning sotib olinishi	8610 8620	5110
15	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlarning qoplanishi	6010	5110
16	Berilgan bo'nak summasi	4310	5110
17	Ilgari olingan bo'naklarning qaytarilishi	6300 7310	5110
18	Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz summasining o'tkazilishi	6410	5110
19	Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarning qoplanishi	6510- 6530	5110
20	Ta'sisчилarga hisoblangan dividendlarning to'lanishi	6610	5110
21	Ajratilgan bo'linmalar, shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga bo'lgan qarz summasining qoplanishi	6110, 6120	5110
22	Qisqa muddatli kredit va qarzlarning qoplanishi	6810- 6840	5110
23	Uzoq muddatli kredit va qarzlarning joriy qismining qoplanishi	6950	5110
24	Hisoblangan foizlar bo'yicha qarzlarning qoplanishi	6920	5110
25	Ijaraga beruvchiga tegishli bo'lgan to'lovlar to'lanishi	6910 -6950	5110

5110- «Hisob-kitob schyoti» bo'yicha operatsiyalar tekshirilgan bank ko'chirmasi va unga ilova qilingan pul hujjatlariga asosan aks ettiriladi. 5110-schyotning saldosi hisob-kitob schyotidan berilgan ko'chirmada ko'rsatilgan qoldiqqa teng kelishi shart. Bu schyot bo'yicha analitik hisob bankning ko'chirmalari bo'yicha yuritiladi. Agar korxonada boshqa hisob-kitob analitik schyoti bo'lsa, operatsiyalar shu analitik hisob bo'yicha yuritiladi.

Buxgalteriya hisobi jurnal-orderlarda yuritilsa, 5110 - schyotning kredit oborotlari 2 - jurnal-orderida aks ettiriladi. 5110 - schyotning debet oborotlari turli jurnal-

orderlarga yoziladi va undan tashqari, 2-qaydnomaga yozib nazorat qilinadi. Bu registrlar tekshirilgan va ishlab chiqilgan bank ko'chirmalariga asosan to'ldiriladi.

Hisob-kitob schyotidan olingan ko'chirmada ko'rsatilgan bir xildagi bog'lanuvchi schyotlarning summolari 2 – jurnal-order va 2 – qaydnomaga jamlab yoziladi. 2 - jurnal-order va 2 - qaydnomani yuritish bir oyga mo'ljallanganligi uchun bankdan olingan har bir ko'chirma ma'lumotlari bir qatorga yoziladi. Demak, 2 -jurnal-order va 2 - qaydnomada band qilingan qatorlar soni shu davr ichida bankdan olingan ko'chirmalar soniga teng bo'lishi kerak. Registrlarda summalar 5110-schyotning debeti va krediti bilan korrespondentlashgan schyotlar bo'yicha yoziladi. Bir hisobot (kun, oy) davriga bunday ko'rsatkichlarning mavjudligi buxgalteriya xodimlariga korxona hisob-kitob schyotiga pul mablag'larining kelib tushish manbalarini tahlil qilish, maqsadli foydalanilishini, tasdiqlangan moliyaviy to'lanmalar kalendar grafigiga binoan budjetga va boshqa organlarga mablag' o'tkazilishi ustidan nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Bunda banklardagi korxonalarning hisob-kitob schyotlari passiv bo'ladi, chunki, bank buxgalteriyasida pulning hisob-kitob schyotiga kelib tushishi hisobvaraqlarning krediti bo'yicha, hisobdan chiqarish esa , aksincha, hisob-kitob schyoti aktiv hisoblanadi, shuning uchun pul mablag'larining hisob-kitob schyotida ko'payishi debet bo'yicha, kamayishi esa kredit bo'yicha aks ettiriladi. Agar bank ko'chirmasida xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, tegishli summa 4860-“Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar” hisobvarag'ining debeti yoki krediti bo'yicha, 5110-“ Hisob-kitob schyoti” hisobvaraq bilan korrespondensiyada aks ettiriladi, bu haqda darhol bankka xabar qilish lozim. Xatoning tuzatilgani to'g'risida bank korxonaga navbatdagi ko'chirmada xabar qiladi va bunga asoslanib tuzatuv yozuvini kiritadi.

Mijoz korxona chek daftarchalarini unga hizmat ko'rsatuvchi bank muassasidan oladi. mehnatga haq to'lash , pensiyalar, kasallik varaqasi bo'yicha nafaqalar , mukofotlar, xizmat safarlari va xo'jalik xarajatlari uchun naqd pullarni bank cheki asosida korxonaning hisob-kitob schyotidan shu korxona kassasiga beriladi.

Pul cheki korxonaning hisob-kitob schyotidan chekda ko'rsatilgan naqd pul summasini berish to'g'risida bankka bergan farmoyishidan iborat.

Chek siyohda yoki sharikli ruchkada to'ldiriladi. Unda summa, chek berilgan vaqt, oluvchining nomi, shuningdek, olingan summaning nima maqsadda ishlatilishi ko'rsatiladi. Buxgalteriya hisobida hisob-kitob schyoti bo'yicha operatsiyalar bank ko'chirmalari va ularga ilova qilinadigan pulli va hisob-kitob hujjatlari asosida aks ettiriladi. Bu ko'chirma hisob-kitob schyoti buyicha bankda yuritiladigan shaxsiy schyotning ikkinchi nusxasi hisoblanadi. Ko'chirmada hisob-kitob schyotiga tushgan va undan tulangan xamma pul mablag'lari kursatiladi. Pul mablag'lari xujalik-ning buyrugidan tashkari hisob-kitobidan sarflangan xollarda ko'chirma-ga tegishli hujjatlar ilova kilinadi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, bank uchun korxonalarning hisob kitob schyotlari passiv schyot bulib hisoblanadi. Shuning uchun uning kreditida ko'payishi, debetida kamayishi aks ettiriladi. Ko'chirmalarni tekshirish paytida aniklangan xatolar hisob-kitob schyotida bank tomonidan yozilgan summada aks ettiriladi.

Bank ko'chirmasi buxgalter tomonidan tekshiriladi va yo'laklarida korrespondensiyalanuvchi hisobvaraqlar shifri qalamda ko'rsatiladi. bank ko'chirmalarida tuzatishlar,o'zgarishlar,ustidan chizishlarga yo'l qo'yilmaydi.

2.2. Valuta schyotiga doir muomalalar hisobi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy valuta operatsiyalarini har bir korxona amalga oshirishi mumkin. Bu yaratilgan imkoniyatlar korxonalarga chet eldagi hamkorlari bilan shartnoma munosabatlarini bajarishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizni rivojlanishining omili hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda valyuta muomalalari harakati to'g'risida qonunlar ham joriy etilgan. Xorijiy valuta operatsiyalarini rasmiylashtirish uchun bankda valuta joriy schyotini ochish kerak. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan xorijiy valuta operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat (litsenziya) berilgan banklarda valuta

schyoti ochish mumkin. Bunday litsenziya olgan banklarni vakillik banklari deyiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vaqti-vaqti bilan chop etiladigan byulletenida keltirilgan xorijiy valutalarda schyotlar ochish mumkin.

Valuta schyotini ochish uchun bank quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

- valuta schyotini ochish to'g'risida ariza;
- ta'sis hujjatlar ko'chirmasi (notariusda yoki ro'yxatga oluvchi organ tomonidan tasdiqlangan ustav, ta'sis shartnomalari);
- notariusda tasdiqlangan ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi hujjatlarning ko'chirmasi;
- korxonani ro'yxatdan o'tgan joyidan soliq inspeksiyasi va pensiya fondida hisobga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- imzolar nusxalari qo'yilgan va yumoloq muhr tushirilgan kartochka;
- qo'shma korxonalar va xorijiy firmalar qo'shimcha qilib O'zbekiston respublikasi adliya vazirligi tomonidan ularni xorijiy investitsiyali korxonalar reestriga kiritilganligi to'g'risida beriladigan guvohnoma topshiradilar.

Valuta schyoti ochilgandan so'ng bank bilan korxona o'rtasida hisoblashish-kassa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuziladi. Unda bankning ko'rsatadigan xizmatlar ro'yxati, xizmatlari uchun to'lanadigan haq tariflari, mablag'larni joylashtirish shartlari, tomonlarning huquq va burchlari va boshqalar ko'rsatiladi.

Amaldagi Nizomga binoan mulk shaklidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy valuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi barcha xo'jalik yuratuvchi subyektlar 2001 yil 1 noyabrdan boshlab xorijiy valutadagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirish tartibi belgilangan.⁹ Xorijiy valuta mablag'lari, qiymatliklari va operatsiyalari xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan sanaga Markaziy bank kursi bo'yicha so'm ekvivalentida aks ettiriladi. Jumladan quyidagilar bo'yicha:

⁹ O'zR Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, makroekonomika va statistika Vazirligi va Markaziy bankning 119, 2001-11, 34 va 205-8 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizomi. 2001 yil 7 noyabr

- kassadagi valuta mablag'lari, bankdagi depozit va ssuda schyotlari, akkreditivlar, valuta ssuda qarzlari;
- xorijiy valutadagi debitor va kreditor qarzar;
- tuzilgan shartnomalar bo'yicha Yuk boj deklaratsiyasini rasmiylashtirish sanasiga import qilingan tovar-material qiymatliklar va boshqa aktivlarning kirimi;
- bojxona to'lovlarining amalga oshirilishi;
- xorijiy valuta ko'rinishidagi pulli hujjatlar;
- xorijiy valutadagi qimmatli qog'ozlar.

Xorijiy valyutadagi mablag'lar holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun 5200 "Chet el valyutasidagi pul mablag'larni hisobga oluvchi schyotlar"dan foydalaniladi. Ushbu schyotning debeti bo'yicha korxona valyuta schyotlariga pul mablag'larining tushumi aks ettirilsa, kreditda esa valyuta schyotlaridan pul mablag'larni chiqimi aks ettiriladi.

Valyuta schyotlari bo'yicha operatsiyalar bankning valyuta schyotlaridan ko'chirmalari va ularga ilova qilingan pul-hisob-kitob hujjatlariga asosan aks ettiriladi. Ushbu bank ko'chirmalarini tekshirish paytida aniqlangan va valyuta schyotlarining debet yoki kreditiga xato olib borilgan summalar 6960 "Davolar bo'yicha to'lanadigan schyotlar" da aks ettiriladi.

Xorijiy valutani sotish va sotib olish buxgalteriya hisobida operatsiya sodir bo'lgan sanaga bo'lgan Markaziy bank kursi bo'yicha aks ettiriladi. Xorijiy valutani sotish (sotib olish)da sodir bo'ladigan kursdagi farq (ijobiy yoki salbiy) ijobiy bo'lsa – 9540 «Kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyotida, salbiy bo'lsa – 9620 «Kurs farqlaridan zararlar» schyotida hisobga olinadi.

O'zining mahsulot (ish, xizmat)lari narxi (tariflari)ni xorijiy valuta ekvivalentida belgilaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zaro hisob-kitoblarni milliy valuta-so'mda olib boradilar. Xizmat ko'rsatgan sanadan to'lanmalarni tushgan sanasigacha markaziy bank kursining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan farq moliyaviy

faoliyatdan olingan boshqa daromad (xarajat) sifatida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga olib boriladi

Mazkur muomalalar hisobining bog'lanishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Chet el valutasidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning bog'lanishi¹⁰

T/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		D-t	K-t
1	Ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha ijarachidan ijara to'lovlarining kelib tushishi	5210-5220	4810,4820
2	Maxsulot(ish, xizmat)lar, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishidan valyutaning kelib tushishi	5210,5220	4010
3	Kassadan valyuta mablag'larining valyuta schyotiga topshirilishi	52105220	5020
4	Ishlatilmagan chek va akkreditiv summasining valyuta schyotiga o'tkazilishi	52105220	55105520
5	Ilgari qisqa muddatli investetsiyalar tartibida berilgan qarzning qaytarilishi	52105220	5830
6	Ilgari berilgan bo'naklarning qaytarilishi	52105220	43104330
7	Qondirilgan da'volar summasining kelib tushishi	52105220	4860
8	Olingan bo'naklar summasi	52105220	63007310
9	Ilgari aksiyalarga obuna bo'lgan ta'sischilardan ulush summasining kelib tushishi	52105220	4610
10	Nominal qiymatdan yuqori bahoda sotilgan aksiyalardan emission daromadning kelib tushishi	52105220	8410
11	Investetsiyaga mablag'larning qo'yilishi	06005800	52105220
12	Bankdan kassaga valyuta mablag'larining kelib tushishi	5020	52105220
13	Xususiy aksiyalarning sotib olinishi	86108620	52105220

¹⁰ . G'ulomova F.G'. «Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma».– T.: «Norma», 2010

14	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlarning to'lanishi	6010	5210 5220
15	Berilgan bonaklarning summasi	4310 4330	5219 5220
16	Ilgari olingan bo'naklarning qaytarilishi	6300 7310	5210 5220
17	Ta'sischi'larga hisoblangan dividendning to'lanishi	6610	5210 5220
18	Hisoblangan foizlar bo'yicha qarzar	6920	5210 5220

Xorijiy valyutalarni oldi-sottisida kelib chiqadigan kurs farqlari ijobiy bo'lsa 9540 "Kurs faqlaridan olingan daromadlar" schyotida ,salbiy kurs farqlari esa 9620 "Kurs farqlaridan zararlar" schyotida aks ettiriladi.

Agarda xorijiy valyuta joriy valyuta schyotiga sotib olish kunining o'zidayoq kirim qilinsa, bunda ushbu operatsiya yuzasidan quyidagicha buxgalteriya yozuvi rasmiylashtiriladi:

1. Debit 5710 "Yo'ldagi o'tkazilgan pullar»	} Xorijiy valyutani sotib olishga berilgan topshiriqnomasiga
Kredit 5110 "Hisob-kitob schyoti"	

2. Debit 5203 " AQSh dollaridagi joriy schyoti.	} Sotib olingan xorijiy valyuta summasiga
Kredit 5710 "Yo'ldagi o'tkazilgan pullar"	

3. Debit 9620 "Kurs farqlaridan zararlar"	} valyutani sotishdan zarar aks ettirildi
Kredit 5710 "Yo'ldagi o'tkazilgan Pullar"	

4. Debit 9430 “boshqa operatsion
xarajatlar”

} Xorijiy valyutani
sotib olishga komission
to'lovlarga harajatlar

Kredit 5110 “Hisob-kitob schyoti” aks ettirildi

Agarda xorijiy valyutani joriy valyutaga kirim qilish kuni sotib olish kuni bilan mos kelmasa, unda oldi-sotdi operatsiyasi bo'yicha ijobiy yoki salbiy kurs farqlari vujudga keladi.

Buni quyidagi jadval misolida ko'rishimiz mumkin:

3-jadval

Xorijiy valyuta kursdagi tafovutlar yuzaga kelishining eng ko'p tarqalgan hollari¹¹

Moliyaviy xo'jalik vaziyati	Kurs tafovutlarining mazmuni	Kurs tafovuti yuzaga keladigan hisobvaraqlar guruhi
Yuklab jo'natilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash uchun pul mablag'larining tushumi	Debitorlik qarzining xaridor (buyurtmachi)ga hisob-kitob xujjatlarini taqdim etilgan kundagi kurs bo'yicha bahosi bilan kelib tushgan pul mablag'larining pul o'tkazilgan kun kursi summasi o'rtasidagi farq	4010-«Olinadigan hisobvaraqlar»
Sotib olingan moddiy boyliklar haqini to'lash	Kreditorlik qarzining u yuzaga kelgan kun kursidagi bahosi bilan o'tkazilgan pul mablag'larining pul o'tkazilgan kun kursidagi summasi o'rtasidagi tafovut	6010-«Mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar»
Ishtirokchi o'zining ustav kapitalidagi ulushi hisobiga to'langan boyliklarni kirim qilish	Qo'yilmaning u hisobga qabul qilingan kundagi bahosi bilan ana shu boyliklarning ular to'langan (kirim qilingan) kun kursidagi bahosi o'rtasidagi farq	4710-«Ustav kapitalidagi ulush bo'yicha muassislar qarzi»
Banklar kreditlarini to'lash	Olingan kreditning(qarzning) u olingan kun kursidagi summasi bilan ana shu kreditning u to'langan kun kursidagi bahosi o'rtasidagi farq	6910-«Bankning qisqa muddatli kreditlari», 7910-«Bankning uzoq muddatli kreditlari»
Hisobdor shaxslarga berilgan summalar	Xisob berish sharti bilan berilgan qarzning u berilgan kun o'rtasidagi summasi bilan tasdiqlovchi xujjatlar taqdim etilgan pulning bo'nak hisoboti tasdiqlangan kun kursidagi summasi o'rtasidagi tafovut	4420-4490 hisobvaraqlar guruhi

¹¹ . G'ulomova F.G'. «Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma».– T.: «Norma», 2010

O'zining mahsulot (ish, xizmat)lari narxi (tariflari)ni xorijiy valuta ekvivalentida belgilaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zaro hisob-kitoblarni milliy valuta-so'mda olib boradilar. Xizmat ko'rsatgan sanadan to'lanmalarni tushgan sanasigacha markaziy bank kursining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan farq moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromad (xarajat) sifatida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga olib boriladi.

Balansning valyuta moddalariga quyidagilar kiritiladi:

- kassadagi, bankning depozit, ssuda schyotlaridagi, shu jumladan akkreditivlardagi valyuta mablag'lari;
- xorijiy valyutadagi pulli hujjatlar;
- xorijiy valyuta ko'rinishidagi qisqa va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar;
- xorijiy valyuta ko'rinishidagi debitor va kreditor qarzar, kreditlar va qarzar.

Quyidagi qiymatliklar qaytadan baholanmaydi:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan xorijiy vaylutaga sotib olingan mulk (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-material qiymatliklar, inventar va xo'jalik jihozlari);
- xorijiy investitsiyali korxona ham qo'shilgan holda, xo'jalik yurituvchi subyektning ustav kapitali hajmi va ta'sischilarning ulushlari.
- Oldindan yig'ilib kelingan va har oygi balans valyuta moddalarini qayta baholashdan hosil bo'lgan ijobiy va salbiy kurs farqlari tegishli «Kelgusi davrlar daromadlari» va «Kelgusi davrlar xarajatlari» schyotlarida aks ettirilib quyidagi tartibda moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga o'tkaziladi:

xorijiy valuta debitor va kreditor qarzar bo'yicha ularning qaytarilishiga qarab; qolgan boshqa hollarda – balansning tegishli valuta moddalari bilan xo'jalik operatsiyalarini sodir bo'lishiga qarab.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga o'tkazilgan ijobiy kurs farqi 9540 «Kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyotining krediti bo'yicha aks ettirilib daromad (foyda) solig'iga tortiladigan bazani ko'paytiradi, salbiy kurs farqi esa 9620 «Kurs

farqlaridan zararlar» schyotining debetida aks ettirilib daromad (foyda) solig'iga tortiladigan bazadan chegirib tashlanadi.

Yalpi daromaddan soliq to'lovchilar uchun kurs farqi qismida soliqqa tortish obyekti bo'lib «Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zarar» schyotining saldosi hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovchilar uchun kurs farqi qismida soliqqa tortish obyekti bo'lib ijobiy kurs farqi hisoblanadi. Bunda yagona soliqni hisoblab chiqarishda salbiy kurs farqi soliqqa tortiladigan bazani kamaytirmaydi.

Korxonaning ustav kapitalini shakllanishida ta'sis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish sanasi bilan ustav kapitaliga mablag'lar qo'yilgan haqiqiy sanadagi Markaziy bank kurslari orasidagi farqi buxgalteriya hisobida qo'shilgan kapital hisoblanib 8410 «Emission daromad» schyotida hisobga olinadi.

Xorijiy valyutani sotib olish uchun hisob-kitob schyotidan so'm ko'rinishidagi mablag'larni valyuta bozorida kelishilgan sotib olish kuniga bo'lgan kurs bo'yicha o'tkazib berilishi:

D-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti,

K-t 5110 «Hisob-kitob» schyoti.

Markaziy bank kursi bo'yicha xorijiy valyutani valyuta schyotiga o'tkazilishi:

D-t 5210 «Valyuta schyoti»,

K-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti.

Xorijiy valyutani Markaziy bank kursidan past kursda sotib olish natijasida sodir bo'lgan ijobiy kurs farqini aks ettirilishi:

D-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti,

K-t 9540 «Kurs farqlaridan olingan daromadlar» schyoti.

Xorijiy valyutani Markaziy bank kursidan yuqori kursda sotib olish natijasida sodir bo'lgan salbiy kurs farqini aks ettirilishi:

D-t 9620 «Kurs farqlaridan zararlar»,

K-t 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining «Tranzit» schyoti.

Xorijiy valyutani o'zlashtirish bo'yicha operatsiyalarni sodir etishdan moliyaviy natija (foyda, zarar) ichki valyuta bozoridagi kurs bo'yicha xarid qilingan xorijiy valyuta summasi bilan uni xarid qilish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha hisoblangan summasi o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Kurs farqi bitimini sodir etish davridagi xorijiy valyutani rasmiy kursi o'zgarishi va shuningdek vakolatli banka komision mukofatlarni to'lash xarajatlari natijasida shakllanadi. Oy oxirida natijalar 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» ga olib boriladi.

Xorijiy valyuta harakati to'g'risidagi ma'lumotni bank muassasasi korxonaga valyuta schyotidan ko'chirma berish yo'li bilan xabar beradi. 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlar»ni kredit oboroti 2/1 – jurnal-orderida aks ettiriladi. Bu schyotning debet oboroti 2/1 qaydnomani yuritish bilan nazorat qilinadi. Valyuta schyoti bo'yicha analitik hisob kartochkalarda valyutalarning nomlari bo'yicha yuritiladi.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda korxona O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 iyundagi 245-sonli qaroriga 1-ilova “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish tartibi”ga amal qilishi lozim. Valyuta tushumi korxonaning hisob-kitob schyotiga kelib tushganda vakolatli bank uni bu haqda keying kundan kechiktirmay xabardor qiladi. Korxona, o'z navbatida bankka valyutaning 50%ini operatsiya amalga oshiringan kundagi Markaziy bank tomonidan belgilangan kurs bo'yicha majburiy sotish to'g'risida topshiriq beradi(to'lov topshiriqnomalarini taqdim etadi). Korxona mablag'lar valyuta schyotiga yozilgan sanadan boshlab 10 ish kuni davomida valyuta tushumining bir qismini majburiy sotishga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmagan taqdirda vakolatli bankning o'zi ko'rsatilgan mablag'larini sotishni amalga oshiradi. Korxona sotilishi majburiy bo'lgan summadan, kechiktirilgan har bir kun uchun qonun hujjatlarida belgilangan hajmda penya to'laydi.

III bob. HISOB- KITOB VA VALYUTA SCHYOTI BO‘YICHA MUOMALALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

3.1 Hisob- kitob va valyuta schyoti bo‘yicha muomalalar auditini o‘tkazishning hozirgi amaliyoti.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi paytga qadar ko‘plab sohalar bilan birga audit sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Bu borda xalqaro andozalarga asoslangan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari qabul qilindi. Mazkur standartlar O‘zbekistonda hisob yuritish tizimini belgilab beradi.

Hususan,yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko‘rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit schyotlar hamda depozit schyotlarning boshqa turlarini ochish huquqiga egalar.

Banklarda schyotni ochish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2001 yil 6 oktyabrdagi 25/4-son (1-son) qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank schyotlari to‘g‘risida yo‘riqnomaga (O‘zR AV 29.09.2003 y. 1080-1-son bilan ro‘yxatga olingan) asosan amalga oshiriladi.

Ushbu yo‘riqnomaga muvofiq, bank schyoti deganda, bank schyoti shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (schyot egasi) schyotiga kelib tushgan pul mablag‘larini qabul qilish va kiritib qo‘yish, mijozning schyotidagi tegishli mablag‘larni o‘tkazish va berish hamda schyot bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi farmoyishlarni bajarish vazifasini o‘z zimmasiga olishi natijasida bank bilan mijoz o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar tushuniladi.

Auditor bankdagi schyotlarga doir muomalalar auditini bankdagi milliy va chet el valyutasidagi pul mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hamda ularga ilova qilingan soliq hisobotini tekshirishdan boshlaydi. Bunda dastavval bankda ochilgan schyotlar soni va raqami hamda qaysi bankda ochilganligi aniqlanadi. Bu ma’lumotlar

auditorga barcha schyotlar bo'yicha bank ko'chirmalarini va har bir schyot bo'yicha hisob registrilarini tekshirish uchun kerak bo'ladi. So'ngra auditor korxona va bank o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yuridik asoslarini aniqlaydi, bank xizmati ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi normalariga muvofiqligini tekshiradi.

Bankdagi schyotlar bo'yicha pul mablag'lari kirimi va chiqimiga doir muomalalar bankda tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu dastlabki hujjatlarning shakllari va to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki yo'riqnomalarida belgilangan. Bunday hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- bank ko'chirmalari (bank tomonidan tasdiqlanib ilova qilingan hisob-kitob to'lov hujjatlarining shakllari bilan);
- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- to'lov orderi;
- inkasso topshiriqnomasi (farmoyishi);
- hisob-kitob schyotiga naqd pul topshirish uchun ariza;
- valyutani majburiy sotish uchun topshiriqnoma;
- valyuta sotib olish uchun topshiriqnoma;
- rezidentning sotib olingan valyutani so'mga aylantirish to'g'risidagi farmoyishi va boshqalar;
- bank hisob-kitob hujjatlariga ilova qilinadigan va amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligini asoslovchi dastlabki hujjatlar»¹².

Yuqoridagilarga asoslanib, auditor hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini tekshiradi, hujjatlarni arifmetik tekshiruv va bankdagi schyotlar bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligini tekshiruvdan o'tkazadi.

¹² Do'smuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. T.: 2003, 207 bet.


«Bank operatsiyalarini tekshirishda auditor banklarda hisob-kitob va boshqa schyotlar mavjudligi va bank operatsiyalarini amalga oshirishda amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini tekshiradi. Tekshiruv korxona tomonidan banklarda ochilgan barcha schyotlar bo'yicha amalga oshiriladi. Tegishli schyotlar bo'yicha ko'chirmalarda qayd etilgan mablag'lar qoldig'i hisobda mavjud bo'lgan mablag'lar qoldig'i bilan solishtiriladi. Ko'chirmalarni rasmiylashtirilishida suiiste'molchiliklarni yashirish maqsadida schyotning debeti va krediti bo'yicha oborot atayin bir xil summaga kamaytirilishi mumkin. Shuning uchun, auditor bank ko'chirmalariga muvofiq schyotning debeti va krediti bo'yicha oborot hisob registrlaridagi ko'rsatkichlar bilan muvofiqligini tekshirishi lozim».

Auditor bankdagi schyotlardan aktseptsiz (roziliksiz) hisobdan chiqarishga doir muomalalarni tekshirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bunday holatlar faqat sud qarori, bevosita qonun ko'rsatmalari, mijozning bank shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Bankdagi schyotlar bo'yicha muomalalar O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar yoki yig'imlarni undirish to'g'risidagi qarorni ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu cheklashlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq ijro qilish navbati soliq to'lashga doir majburiyatlardan oldin to'lanadigan to'lovlarga taalluqli emas. Bankdagi muomalalarni to'xtatish soliq organidan bunday muomalalarni to'xtatish to'g'risidagi qaror qilingan paytdan to ushbu qaror bekor qilingunga qadar amal qiladi.

Moliyaviy hisobotning ishonchliligini tasdiqlash uchun undagi qo'rsatkichlarning sintetik va analitik hisob, bank ko'chirmasi ma'lumotlariga mosligini tekshirish kerak. Bunday tekshiruvni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq (4-chizma).

Dastlabki hujjatlar quyidagi tartibda guruhlanadi: oldin bank ko'chirmalariga kirim hujjatlari, ulardan keyin esa barcha chiqim hujjatlari ketma-ket ilova qilinadi:



4-chizma. Bank muomalalari auditida amalga oshiriladigan muolajalar ketma-ketligi¹³

¹³. To'laxodjaeva M.M., Ilxomov SH.I., Axmadjonov K.B. va boshqalar. Audit, Darslik. I, II jild. O'z.R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: «NORMA», 2008.

Bank ko'chirmalarini bunday tartibda tekshirish bank hujjatlarini amalga oshirilgan muomalalarning mohiyatiga ko'ra tekshirish bilan birga amalga oshirilishi kerak. Bunda auditor quyidagilarni aniqlashi lozim (5-jadval).

5-jadval

Bank muomalalari auditining mazmuni¹⁴

N	Tekshiruv mazmuni
1	Tovarsiz schyotlar va boshqa noqonuniy muomalalar bo'yicha avanslar va to'lovlarning noto'g'ri o'tkazilishiga yo'l qo'yilmayotganligi (tekshirilayotgan korxonaga aloqador bo'lmagan, boshqa korxonalar sarfiga doir schyotlarni to'lash va h.k.)
2	Tovar-moddiy qiymatliklarni mavsumiy jamg'arish, bajarilgan ishlar uchun buyurtmachilar tomonidan taqdim qilingan schyotlarni to'lash maqsadida olingan bank ssudalaridan o'z vaqtida va to'g'ri foydalanish, ssuda olish uchun taqdim qilingan hujjatlarning to'g'riligi.
3	Bankdan olingan limitlangan va limitlanmagan chek daftarchalarining hisobda to'g'ri aks ettirilganligi va qonuniy foydalanilayotganligi (ularning hayotiy hisobda turadigan hujjatlar sifatida hisobga olinishi), ular hisobdor shaxslarga tilxat bo'yicha berilayotganligi.
4	Hisobdor shaxslar tomonidan chek daftarchalarining ishlatilishi to'g'risida hisobot tuzilishi, hisobdor shaxslar hisobotlaridagi qoldiq va oborotlarning maxsus ssuda schyoti bo'yicha qoldiq va oborotlarga mos kelishi.
5	Cheklarning nomerlari, sanalari va summalarining transport hujjatlarida ko'rsatilishi va h.k
6	Akkreditivlar orqali amalga oshiriladigan muomalalarning to'g'riligi va qonuniyligi.

¹⁴ . Do'smurotov R.D., Fayziev SH.N. Audit. O'quv qo'llanma. I,II qism. - T.: «Iqtisod-moliya», 2008.

Bulardan tashqari, korxonaning to'lovga layoqatsizligi yuzaga kelmayotganligi va bunday holda korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash borasida qanday choralar ko'rilganligi ham aniqlanadi.

Tekshiruv jarayonida bajariladigan amallar auditorning ishchi hujjati bilan rasmiylashtiriladi. Tafovutlar aniqlanganida farq summalarini ko'rsatish va ularning sabablarini ochib berish zarur.

Shunday qilib, bank muomalalarining auditi 5110 «Hisob-kitob schyoti», 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari», 5220 «Xorijdagi valyuta schyotlari», 5510-«Akkreditivlar», 5520 «Chek daftarchalari» va 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» bo'yicha amalga oshiriladi.

5110-«Hisob-kitob schyoti» ga kelib tushgan pul mablag'larini tekshirishda, ularni kirim qilishning to'g'riligi aniqlanadi. Chunonchi, kassa muomalalarini tekshirish jarayonida barcha bank ko'chirmalarida bankka topshirilgan naqd pul badallari alohida belgilab qo'yilishi lozim.

Hisob-kitob va valyuta schyotlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish bo'yicha bankdan olingan naqd pullarning o'z vaqtida to'liq qabul qilinishi hamda maqsadga muvofiq ishlatilishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Pul mablag'larini o'tkazish, mol etkazib beruvchilarga qarzlarning qoplanishi, ulardan foydalanishning xaqqoniyligi va asoslilikini ta'minlash maqsadida ushbu schyotlar tekshiriladi.

Auditor aktseptlangan topshiriqlar bilan aloqa bo'limi orqali pul o'tkazilganda xatolikka yo'l qo'yilmaganligini ham tekshirishi lozim. Bunda joriy va deponentlangan ish haqi, ijro varaqalari bo'yicha ushlangan summalar yoki hisobdor summalar va h.k. tekshiriladi.

Pul o'tkazilayotgan vaqtda o'tkazilish xususiyatlari va o'tkazilayotgan summa to'g'riligi (dastlabki hisob hujjatlariga solishtirish yo'li bilan) shuningdek, o'tkazishlarni oladigan shaxslar ro'yxatining ishonchliligi tekshirilishi lozim.

Auditor dastavval, hisob-kitob schyoti bilan bog'liq bo'lgan bank muomalalariga doir namunaviy buxgalteriya yozuvlarining tasniflagichi bilan tanishib chiqishi zarur.

Bu eng ko'p uchraydigan muomalalarni aniqlash va schyotlar bog'lanishining to'g'riligini tekshirishga imkon beradi. Agar korxonada bunday tasniflagich yo'q bo'lsa, Bosh daftardagi schyotlar boshlanishidan foydalanib, tegishli axborotga ega bo'lish mumkin. Bunda korxona faoliyatiga xos bo'lmagan muomalalarga doir schyotlar bog'lanishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Agar bank xizmati ko'rsatish shartnomasida bank tomonidan korxonaning pul mablag'laridan foydalanishi ko'zda tutilgan bo'lsa, auditor olingan foizlarning korxonada har oyda daromad sifatida aks ettirilishi yoki ularning hisob-kitob schyotiga haqiqatda o'tkazilishiga qarab aks ettirilishini tekshirishi lozim. Olinadigan foizlarni noto'g'ri aks ettirish nafaqat hisobot davridagi moliyaviy natijalarning buzib ko'rsatilishiga, balki korxonaga nisbatan soliq organi tomonidan moliyaviy jazo choralari (jarimalar) qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, auditor hisob-kitob schyotiga doir muomalalar bo'yicha quyidagilarni ham tekshiradi:

hisob registrilarini yuritish tartibi;

bankda ochilgan har bir hisob-kitob schyoti bo'yicha sintetik hisob registrining yuritilishi, yig'ma registr tuzilishi;

hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari harakatiga doir muomalalarning sintetik hisob registrilarida o'z vaqtida aks ettirilishi;

har bir bank ko'chirmasi ma'lumotlarining hisob registrilariga yozib borilishi;

bank ko'chirmasi va hisob registrilaridagi summalar tengligi.

Xo'jalik sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori¹⁵ bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank schetlari to'g'risida» yo'riqnoma¹⁶ ga muvofiq xorijiy valyutada talab qilib olinguncha depozit schetlarini hamda ikkilamchi talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli valyuta operatsiyalarining buxgalteriya hisobi chet el valyutasining har bir

¹⁵ 2001 yil 6 oktyabrdagi 25/4-son (1-son) qarori.

¹⁶ Mazkur Yo'riqnoma O'zR MB Boshqaruvi Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan va O'zR AV 29.09.2003 y. 1080-1-son bilan ro'yxatga olingan.

turi (AQSh dollari, funt sterling, evro va boshqalar) bo'yicha alohida olib boriladi va xo'jalik operatsiyalari amalga oshirilgan sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan kurs bo'yicha «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» va «Chet eldagi valyuta schyotlari» schyotlarida so'm ekvivalentida aks ettiriladi».

Bankdagi valyuta schyotlari bo'yicha muomalalarni tekshirish mobaynida auditor quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim 6(-jadval).

6-jadval.

**Valyuta schyoti bo'yicha muomalalarni tekshirishdagi auditorlik
muolajalari¹⁷**

№	Auditorlik muolajalari
1	Joriy valyuta muomalalari va kapitalning harakati bilan bog'liq valyuta muomalalari huquqiy rejimiga rioya qilinishini tekshirish.
2	Valyuta muomalalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining litsenziyasiga ega bo'lgan, vakolatli banklar orqali valyuta muomalalarini amalga oshirishni tekshirish.
3	Vakolatli banklarda ayrim valyuta muomalalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan beriladigan ruxsatnomalar va litsenziyalarning mavjudligini tekshirish.
4	Yuridik shaxs-rezidentlar tomonidan ular ixtiyorida mavjud bo'lgan, legal kelib chiqishga ega valyuta mablag'lari chegarasida chet el valyutasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirilganligini tekshirish.

Valyuta schyotlari bo'yicha muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bankda ochilgan, shu jumladan chet ellardagi ham har bir valyuta schyoti bo'yicha amalga oshiriladi.

Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, agar O'zbekiston korxonasining xorijiy bankda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki litsenziyasi bo'yicha ochilgan schyoti bo'lsa, bu litsenziya unga valyuta tushumini qabul qilish uchun asos bo'la

¹⁷ . To'laxodjaeva M.M., Ilxomov SH.I., Axmadjonov K.B.va boshqalar. Audit, Darslik. I,II jild. O'z.R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: «NORMA», 2008.

olmaydi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida xorijiy bankdagi schyotga valyutani har bir kirimi uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi lozim.

Audit jarayonida, rezident bo'lib hisoblangan, eksport qiluvchi tashkilotlar valyuta tushumi qabul qilinishining to'liqligi va to'g'riligini tekshirishda, auditor vakolatli banklardagi ularning valyuta schyotlari bo'yicha quyidagilarni aniqlashi kerak:

tashkilot valyuta tushumini chet ellik hamkorining reklamatsiyasini qoniqtirish hisobiga jarima to'lash yoki zararlarni qoplash, ya'ni o'zaro talablarni hisobga olish to'g'risidagi talablarni;

eksport kontraktlari kabi, import kontraktlarini bajarish mobaynida ham o'zaro qarz surishish hollariga yo'l qo'yilmaganligi;

O'zbekiston Respublikasiga o'tkazilishi lozim bo'lgan va xorijdagi rezidentning ixtiyoriga yoki mulki qatoriga o'tgan tushumdan to'lovlar amalga oshirilmaganligini.

Olingan daromad pul o'tkazish amalga oshirilgunga qadar faqat ushbu daromad olingan tashqi iqtisodiy muomala bilan bevosita bog'liq bo'lgan bank komissiyalari va chiqimlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin.

Valyuta tushumining to'liq kirim qilinishini tekshirish uchun yil davomida tushgan valyuta summasi eksport qilingan tovar qiymati bilan taqqoslanadi.

Valyuta schyotiga doir muomalalarini tekshirish mobaynida valyuta sotish va sotib olishga doir muomalalarning to'g'ri aks ettirilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, korxonalarda buxgalter ko'p hollarda hisobga olish uslubiyotida ham, kurs farqlarini hisob-kitob qilishda ham valyutani so'mga hisoblab o'tkazishda ko'plab xatolarga yo'l qo'yadilar.

Valyuta schyotlari bo'yicha muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bankda ochilgan, shu jumladan chet ellardagi ham, har bir valyuta schyoti bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, agar O'zbekiston korxona sining xorijiy bankda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki litsenziyasi bo'yicha ochilgan schyoti bo'lsa, bu litsenziya unga valyuta tushumini qabul qilish uchun asos

bo'la olmaydi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida xorijiy bankdagi schyotga valyutani har bir kirimi uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi lozim.

Audit jarayonida auditor mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xorijiy valyutadagi tushumni majburiy tartibda sotishiga alohida e'tiborini qaratishi lozim. «Korxonalar majburiy sotishni tovarlar va xizmatlar eksportidan olingan xorijiy valyutadagi tushumdan amalga oshiradilar»¹⁸.

Bunda xorijiy valyutadagi tushum deganda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar uchun korxonalarning vakolatli banklardagi hisob raqamlariga va kassalariga amalda tushgan xorijiy valyutadagi pul mablag'lari (keyingi o'rinlarda tushum deb ataladi) tushuniladi

vositachilik faoliyatidan daromad oluvchi korxonalar uchun majburiy sotish maqsadlari uchun xorijiy valyutadagi tushum deganda bajarilgan bitimlar bo'yicha olingan vositachilik haqi (foizlar) miqdori tushuniladi;

banklar bo'yicha xorijiy valyutadagi tushum deganda, vositachilik haqi ko'rinishida olingan mablag'lar, vakolatli banklarning xorijiy banklardagi hisob raqamlari bo'yicha qo'shilgan foizlar, shuningdek banklar tomonidan norezidentlardan olingan xorijiy valyutadagi boshqa daromadlar (maslahat xizmatlari ko'rsatishdan olingan daromadlar, olingan jarimalar, penya va h.k.) tushuniladi;

sug'urta tashkilotlari bo'yicha xorijiy valyutadagi tushum deganda, sug'urta muddati tamom bo'lgandan keyin sug'urta to'lovlari chiqarib tashlangan holda hisoblab chiqilgan sug'urtalanuvchilarning sug'urta badallari sifatida olingan mablag'lar, shuningdek boshqa tushumlar tushuniladi.

Xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotishdan:

xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilayotgan, ustav fondida xorijiy sarmoya ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 iyundagi 245-son qarori «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish tartibi» (o'zgartirishlar bilan).

korxonalar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 5 yil muddatga ozod qilinadi. Mazkur korxonalar, agar ushbu tovarlarni o'zining ishlab chiqarishi ulushi xo'jalik faoliyatidan olingan tushum umumiy miqdorining 60 foizidan ortiqni tashkil etsa, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan korxonalar deb hisoblanadi;

xayriya maqsadlariga hadya sifatida tushuvchi xorijiy valyutadagi mablag'lar, grantlar, ulardan maqsadli foydalanilgan taqdirda, ustav sarmoyaga ulushlar, shuningdek korxonalarning chet eldagi xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga sotilgan aktsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga haq to'lash uchun tushgan mablag'lar ozod qilinadi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini xususiyashtirishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1998 yil 18 noyabrdagi 477-son qaroriga muvofiq keyinchalik to'liq miqdorda Markaziy bankka majburiy sotilgan holda Davlat mulki qo'mitasining maxsus valyuta hisob raqamiga o'tkazilishi kerak bo'lgan xorijiy investorlardan korxonalar yoki aktsiyalar paketlari qiymati uchun haq to'lashdan tushgan erkin almashtiriladigan valyutadagi mablag'lar bundan mustasno);

- xorijiy valyutadagi kreditlar;
- valyuta bozorida sotib olingan xorijiy valyutadagi mablag'lar;
- bajarilmagan import kontraktlar bo'yicha qaytariladigan avans to'lovlari;
- mikrofirmalar, kichik korxonalar o'zlari ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumi. (O'zR VM 17.01.2004 y. 28-son Qarori taxriridagi kichik band)..

Majburiy sotilishi kerak bo'lgan xorijiy valyutadagi tushum:

a) korxonalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bojxona tartibotlari, yuklarni transportda tashish, sug'urtalash, ekspeditsiya qilishga, vositachilik haqi bo'yicha xarajatlar miqdoriga, kontraktlarga muvofiq xorijiy banklarning va O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklarining kreditlari uchun foizlar, shu jumladan, xorijiy valyutadagi kafilliklar foizlari bo'yicha to'lovlar

miqdoriga (muddati o'tkazib yuborilgan va muddati kechiktirilgan qarzar foizlaridan tashqari) kamayadi;

b) banklar bo'yicha:

bank mijozlarining depozit hisob raqamlari va omonatlaridagi mablag'lar qoldiqlari bo'yicha xorijiy valyutada to'lanadigan foizlar miqdoriga;

xorijiy banklardan olingan xorijiy valyutadagi kreditlar uchun foizlar bo'yicha to'lovlar, shuningdek xorijiy banklarning xorijiy valyutada haq to'langan xizmatlari qiymatiga;

xorijiy valyutadagi tushumning chet elda asbob-uskunalar ijarasi (lizing) uchun xaq to'lanadigan qismiga kamayadi;

v) O'zbekiston Respublikasi hududida erkin almashtiriladigan valyutaga xom ashyo xarid qilishga istisno tariqasida ruxsat berilgan korxonalar bo'yicha valyuta tushumining bir qismini majburiy sotish miqdori eksport qilinadigan mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyo va materiallarni respublika ichida xarid qilish uchun foydalaniladigan valyuta xarajatlari miqdoriga kamayadi.

Korxonalar foydasiga xorijiy valyutada tushgan tushum, agar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'zgacha ruxsat bo'lmasa, respublika vakolatli banklaridagi hisob raqamiga majburiy o'tkazilishi kerak.

Buning uchun vakolatli bankda korxonalarga:

xorijiy valyutadagi tushumni to'liq miqdorda o'tkazish uchun xorijiy valyutadagi talab qilib olinadigan ikkilamchi (tranzit) depozit hisob raqami (keyingi o'rinlarda tranzit valyuta hisob raqami deb ataladi) ochiladi;

xorijiy valyutadagi tushum majburiy sotilgandan keyin korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'larni hisobga olish uchun xorijiy valyutadagi talab qilib olinadigan depozit hisob raqami (keyingi o'rinlarda valyuta hisob raqami deb ataladi) ochiladi.

Majburiy sotilishi kerak bo'lgan mablag' korxonalar tomonidan mazkur tartib talablari hisobga olingan holda aniqlanadi.

Auditorlik tekshiruvi mobaynida, auditor markazlashtirilmagan valyuta tushumini majburiy sotish tushum korxonaning tranzit valyuta hisob raqamiga tushgan sanadan boshlab 5 bank kunidan kechikmay, markazlashtirilgan eksport bo'yicha esa 3 bank kunidan kechikmay amalga oshirilganligiga e'tibor qaratishi kerak. Bunda 500 AQSh dollariga teng bo'lgan miqdordan oshmaydigan xorijiy valyutadagi tushumdan majburiy sotishni har o'n kunda amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Auditor tovarlar va xizmatlarni markazlashtirilmagan eksport bo'yicha sotishdan olingan xorijiy valyutadagi tushumning 50 foizi vakolatli banklarga majburiy sotilishi kerakligini ham tekshirishi lozim.

Vakolatli banklar tomonidan valyuta tushumining bir qismi korxonalar tomonidan majburiy sotilishi tartibida sotib olingan xorijiy valyutadagi mablag'lar belgilangan tartibda birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Valyutani majburiy va qaytarib sotish mobaynida qonunchilikda belgilangan, sotish tartibining majburiy shartlari kabi, bu muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish ham tekshirilishi lozim. Valyutani ixtiyoriy sotishda esa asosan ushbu muomalalarning buxgalteriya hisobida aks ettirishi tekshiriladi.

Auditor balansning valyuta moddalari har oyda qaytadan baholanishi to'g'riligini va vujudga kelgan kurs farqlari tegishli ravishda – ijobiy kurs bo'lsa - 9540 «Valyutalar kurslari farqlaridan olingan daromadlar» schetiga, salbiy kurs bo'lsa - 9620 «Valyutalar kurslari farqlaridan zararlar» schetiga o'tkazilganligini tekshiradi. Shuningdek, auditor kassadagi, bankdagi depozit va ssuda schetlaridagi, shu jumladan akkreditivlar, chet el valyutasidagi pullarga oid hujjatlar, chet el valyutasidagi qisqa muddatli va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasida ifodalangan debitorlik va kreditorlik qarzlar, kreditlar va zayomlar valyuta qiymatida hisoblanishini esda tutishi lozim.

Qaytadan baholash natijasida vujudga kelgan to'plangan ijobiy va salbiy kurs farqlari 9540 «Valyutalar kurslari farqlaridan olingan daromadlar» yoki 9620

«Valyutalar kurslari farqlaridan zararlar» schetlaridan hisobdan chiqariladi va ular yopilishi yoki hisobdan chiqarilishiga qarab, boshqa holatlarda esa xo'jalik operatsiyalar sodir etilganligiga qarab - debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha moliyaviy natijalarga o'tkaziladi. Kurs farqi bo'yicha buxgalteriya hisobini soddalashtirish maqsadida, ijobiy va salbiy kurs farqi kurs farqini hisobdan chiqarish amalga oshirilgan hisobot oyining oxirida chet el valyutasining birligiga to'g'ri kelgan kurs farqining o'rtacha miqdori bo'yicha hisobdan chiqarish ruxsat etilgan.

Kurs farqi to'g'ri soliqqa tortilishini tekshirishda, auditor ijobiy kurs farqi soliqqa tortish bazasini oshirishini, salbiy kurs farqi esa - uni kamaytirishini esda tutishi lozim. Zararlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga salbiy kurs farqini moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga uni qoplashga etarli bo'lgan daromadlar chegarasida hisobdan chiqarish ruxsat etilgan. Yagona soliq to'lovchilar uchun inobatga olinadigan kurs farqi ijobiy kurs farqi hisoblanadi. Bunda yagona soliqni hisoblashda salbiy kurs farqi soliqqa tortish bazasini kamaytirmaydi.

Xorijiy valyutani o'zlashtirish bo'yicha operatsiyalarni sodir etishdan moliyaviy natija (foyda, zarar) ichki valyuta bozoridagi kurs bo'yicha xarid qilingan xorijiy valyuta summasi bilan uni xarid qilish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha hisoblangan summasi o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Kurs farqi bitimini sodir etish davridagi xorijiy valyutani rasmiy kursi o'zgarishi va shuningdek vakolatli banka komision mukofatlarni to'lash xarajatlari natijasida shakllanadi. Oy oxirida natijalar 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» ga olib borilad

3.2. HISOB KITOB VA VALYUTA SCHYOTIGA DOIR

MUOMALALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Tashqi iqtisodiy munosabatlarni samarali amalgi oshirish xo'jalik tarmoqlarining keng rivojlanishiga, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini takomillashishiga, ayrim tarmoqlar va ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va

texnologiya bilan qurollantirishga, mineral xom ashyo va inson resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga imkon beradi. Samarali amalga oshirilayotgan munosabatlar mamlakat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga yordamlashadi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun jahonning yuksak talablariga javob beradigan hisob va hisobot tizimini shakllantirish zarur, chunki har qanday iqtisodiy aloqani samarali amalga oshirish zahirida ishtirokchilarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan tanishishlari turadi. Albatta, bu tanishish korxonalar moliyaviy hisobotlarini o'qish orqali amalga oshib, ishtirokchilar bu hisobotlarning haqqoniyligini to'g'ri tuzilganligiga ishonch hosil qilishlari kerak bo'ladi, Bunday ishonch mezoniga hisobotning auditorlik nazoratida o'tganligi va qanday xulosalanganligiga qarab erishiladi Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni amalga oshirish va qo'shma korxonalar ochish uchun, asosan, O'zbekiston Respublikasining firmalari faqat xalqaro auditorlik firmalari xizmatidan foydalangandagina taqdim etgan hisobotlari inobatga olinayapti. Bu mahalliy auditorlik firmalarining mavqeini oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida tuzilayotgan auditorlik firmalarining xalqaro talab darajasiga ko'tarilishi va auditorlik xizmatlarini jahon standartlari darajasida olib borishi uchun audit metodikasini hamda moddiy-texnik bazasini yaxshilash bilan bir qatorda valyuta muomalasining auditi masalalarini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida barcha sohalarda bilan birga audit sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Bu borada xalqaro standartlarga asoslangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari qabul qilindi. Mazkur standartlar O'zbekistonda hisob yuritish tizimini belgilab beradi.

Shu bilan birga xalqaro standartlarga asoslangan O'zbekiston Respublikasi audit milliy standartlari ham qabul qilindi. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi taxriri esa ushbu sohada olib borilgan

islohotlarni mantiqiy davomi bo'ldi. Biroq shuni tan olishimiz kerakki, bu sohada mukammal darajaga erishish uchun mehnat va vaqt talab etiladi. Sababi auditorlik faoliyati bo'yicha chuqur tajriba va tarixga ega G'arb davlatlarida ham auditorlik faoliyatini yangi qirralari, amaliyoda avval uchramagan va qonuniy xujjatlarda aks etmagan holatlar haligacha uchrab turibdi.

Bugungi kunga kelib hisob-kitob schyoti bo'yicha muomalalar auditori ancha takomillashdi. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan bu turdagi auditining hozirgi kunda ba'zi-bir muammolari mavjud. Ushbu muammolar, eng avvalo, valyuta mablag'lari auditida uchramoqda.

Ma'lumki, valyuta muomalalari uchraydigan korxonalarni aksariyati tashqi iqtisodiy faoliyatni ishtirokchisi ekan, ulardagi auditorlik nazorati va tekshiruvi ham xalqaro talabga javob berishi majbur bo'ladi. Valyuta muomalalari auditorini xalqaro darajada tashkil qilish uchun, avvalambor, audit jarayonini talab darajasida tashkil qilish lozim.

Valyuta muomalalari auditida auditorlar o'z e'tiborlarini korxona olgan chet el valyutasidagi kreditiga qaratishlari lozim. Ushbu masala hozirgi kunda juda muhim hisoblanishini asosiy sababi hukumatimiz olib borayotgan iqtisodiy siyosati bilan ham bog'liqdir. Ya'ni korxona olayotgan krediti hisobiga raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan tovar ishlab chiqarishi va kreditni qoplashni o'z valyuta mablag'lari hisobiga amalga oshirishi lozim. Shuningdek korxonaning valyutadagi debitorlik qarzlarini auditiga xam jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Xalqaro amaliyotda auditor valyuta mablag'larining auditida ichki nazorat tizimini testlar yordamida baholash muhim o'rin tutadi. Shu sababdan mamlakatimizda o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvlarida ham testlardan foydalanish audit jarayonini mukammallashishiga omil bo'lar edi. Quyida pul mablag'lari hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarning nazoratini tekshirish bo'yicha namunaviy testlar to'plamini keltiramiz.

Bugungi kunga kelib hisob-kitob schyoti bo'yicha muomalalar auditlari ancha takomillashdi. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan bu turdagi auditning hozirgi kunda ba'zi-bir muammolari mavjud. Ushbu muammolar, eng avvalo, valyuta mablag'lari auditida uchramoqda.

7-jadval

Hisob-kitob schyoti bo'yicha muomalalarni audit qilishdagi namunaviy testlar to'plami¹⁹.

No	Mazmuni	Javoblar
I. Nazoratning amalga oshirilishi		
1	Bosh buxgalter har kuni bank ko'chirmalarini tekshirdimi?	
2	Bank ko'chirmalari bilan unga ilova qilingan hujjatlar o'xshashligi tekshiriladimi?	
3	Bosh buxgalter bankdan olingan pul mablag'larini to'la kirim qilinishini tekshiradimi?	
4	Banklarda boshqa hisobvaraqlar ochilganmi?	
II. Haqiqiyliigi.		
5	Seyfda rahbar tomonidan avvaldan imzolangan to'lov talabnomalari saqlanadimi?	
6	Valyuta xaridi bo'yicha, valyuta olish bo'yicha arizalar va to'lov talabnomalari ro'yxatga olinadimi?	
7	Shartnomalar nusxalari buxgalteriyada mavjudmi va chet ellik sheriklarga to'lov shartnomalar asosida amalga oshiriladimi?	
III. Ruxsat olish		
8	Bank muomalalariga bosh buxgalter va korxona rahbaridan tashqari ularning o'rinbosarlari tomonidan sanksiya beriladimi?	
9	Mol yetkazaib beruvchilarga avvaldan to'lanadigan hisobvaraqlarga rahbarning ruxsat beruvchi imzosi qo'yiladimi?	
IV. Turlanishi		
10	Korxonada vujudga keladigan va ko'p muomalalar bo'yicha korrespondensiyalar ishlab chiqilganmi?	
V. Hisob		
11	Bank ko'chirmalari buxgalteriya hisobida har kuni aks ettirilib, qayta ishlanadimi?	

¹⁹. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit tizimi. - T.: «Iqtisod-moliya», 2007

Valyuta muomalalari auditi masalalari kassadagi mablag'lar auditidan boshlanadi. Auditni boshlashdan avval auditor buxgalteriya xodimlaridan kerakli ma'lumotni olib, ichki nazorat tizimini baholaydi va kassadagi valyuta mablag'larini tekshirish uchun test savollarini ishlab chiqishi zarur bo'ladi.

8-jadval

Valyuta hisobvarag'laridagi pul mablag'larini harakatini auditdan o'tkazish dasturi²⁰

№	Dasturga kiritilgan savollar	Axborot manbai	Izoh (qo'llaniladi- gan uslublar)
1.	Bankdan olingan va kirim qilingan valyutani tekshirish	Bank ko'chirmalari kassir hisoboti №2 jurnal order №1 qaydnoma	Kuzatish
2.	To'lov talabnomasi va boshqa hujjatlardagi yozuvlar bank ko'chirmasidagi yozuvlarga mos kelishi	Bank ko'chirmalari, ilova qilingan hujjatlar	Tasdiqlash, kuzatish
3	Import qilingan va to'langan tovarlarni to'la kirim qilinganligi	Ko'chirmalar tovarni kirim hujjatlari	Tanlanma, tekshirish
4.	QQS va bojxona bojlarining o'z vaqtida to'lanishi	Bank ko'chirmalari, to'lov talabnomalari	Kuzatish, tekshirish
5.	Valyuta xaridining maqsadga muvofiqligi va hisobda to'g'ri aks ettirilishi	Bank ko'chirmalari, xarid uchun ariza	Tasdiqlash, kuzatish
6.	Valyuta mablag'larini saqlaganligi uchun bank foizlarini o'z vaqtida va to'la hisoblanishi	Bank bilan shartnoma, bank ko'chirmalari	Tasdiqlash, kuzatish
7.	Kurs farqini to'g'ri hisoblanganligini tekshirish	Ko'chirmalar	Qayta hisoblash
8.	Valyuta hisobvarag'i qoldiqlarini so'mdagi ekvivalentini to'g'ri hisoblanganligini tekshirish	Bank ko'chirmalari	Qayta hisoblash
9.	Chet ellik mol yetkazib beruvchilar va vositachilarga to'langan summalarning to'g'riligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish	Olingan tovarlar bo'yicha hisob-faktu- ralar, to'lov talab- nomalari, shartno- malar	Kuzatish, tasdiqlash

Valyuta muomalalarini auditini takomillashtirishdagi yana bir muhim masala auditni tashkil qilishdan avval uning dasturini ishlab chiqish va shu dastur asosida

²⁰ . Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit tizimi. - T.: «Iqtisod-moliya», 2007

ishni olib borishdan iboratdir. Yuqoridagi valyuta hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini harakatini auditdan o'tkazish bo'yicha maxsus dasturni namunaviy shaklini amaliyotda qo'llash, fikrimizcha, yaxshi samara beradi

Valyuta muomalalarini auditida amaliyotda uchrab turadigan kamchiliklardan biri bu korxonani valyutadagi kreditorlik va debitorlik qarzlarini qayta baholashda buxgalterlar tomonidan kurs farqining noto'g'ri hisoblanishi va buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks etishi bilan bog'liqdir. Amaliyotda eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biri bu kurs farqlarini aks ettirishda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining №119 Nizomini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Hususan, ushbu Nizomga muvofiq debitorlik qarzlar tufayli vujudga keladigan kurs farqlari yoki "Moliyaviy faoliyatning daromadlari" "Moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlari" hisobvaraqlarida yoki "Kelgusi davr harajatlari", "Kelgusi davr daromadlari" hisobvaraqlariga olib borilishi kerak.

Ushbu korrespondensiyalarni farqi shundaki, korxonalar agar Tovar(ish, hizmat) narxini chet el valyutasida belgilasa, lekin to'lovni so'mda amalga oshirsa, u to'lov amalga oshirilmasa ham hisobot tuzayotganda kurs farqini "Moliyaviy faoliyatning daromadlari", "Moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlari" hisobvaraqlarida olib borilishi lozim bo'ladi. Buning natijasida esa kurs farqi faqat qoplanganidan keyingina soliq bazasiga kiritiladi. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi, qo'shma tadbirkorlik va xorijiy kapitalni jalb qilish va ularga imtiyozlar berishga qaratilgan Prezident Farmonlari va bir qator qonunlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi chet el sarmoyalarini jalb qilishni yanada jadallashtirib, bu sohada tub o'zgarish yasashi shubhasizdir. Shuningdek, ular xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy huquqlarini yanada kengaytirib, faoliyatini rag'batlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan masalalardan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, korxona valyuta muomalalarini ustidan samarali nazorat va auditni ta'minlash uchun

korxonalarda ichki nazorat ishini mukammallashtirish va valyuta muomalalarini nazorat qilish lozim.

XULOSA

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik sube'ktlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada kengaytirish talab qilinadi. Mazkur faoliyatning samaradorligi bevosita o'zaro hisob-kitoblarni samaradorligi bilan bog'liq. Bizga ma'lumki, tashqi iqtisodiy faoliyat yuzasidan shakllanadigan o'zaro majburiyatlar bilan bog'liq hisob -kitoblar asosan erkin ayriboshlanadigan valyutalarda amalga oshiriladi. Bu esa o'z - o'zidan valyuta muomalalarini vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bozorning asosiy subektlari bo'lgan korxona va tashkilotlar yagona bitta maqsad asosida ishlamoqdalar, u ham bo'lsa, foyda olish va faoliyat samaradorligini oshirish. Bu jarayonda, albatta, pul mablag'laridan samarali foydalanish taqozo qilinadi.

Shuningdek, hozirgi kunda respublikamiz hukumati chet el investorlarini jalb etishda ko'p ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi, qo'shma tadbirkorlik va xorijiy kapitalni jalb qilish va ularga imtiyozlar berishga qaratilgan Prezident Farmonlari va bir qator qonunlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarning qabul qilinishi chet el sarmoyalarini jalb qilishni yanada jadallashtirib, bu sohada tub o'zgarish yasashi shubhasizdir. Shuningdek, ular xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy huquqlarini yanada kengaytirib, faoliyatini rag'batlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Nazariy manbalarni o'rganish, umumlashtirish, pul muomalasini hisobi va auditining amaliyotdagi ahvolini tadqiq qilish hisob – kitob va valuta schiyoti hisobi va auditini takomillashtirishga doir quyidagi xulosalarni chiqarish hamda takliflarni kiritish imkonini berdi:

1. Korxonada pul mablag'lari muomalasi yil davomida bir tekis davom etmaydi. Bu esa ularning hisobi va auditiga ham ta'sir etadi. Shu sababli pul mablag'lari hisobi va auditini tashkil etishning boshqa sektorlarga nisbatan farqli jihatlari tavsiflandi. Ushbu muammoni hal etishning tashkiliy, xuquqiy, amaliy asoslari belgilandi.

2. Chet el valyutasida muomalalarni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar

o'zlarining valyuta tushumlaridan majburiy ravishda sotadigan qismini, ya'ni 50 foizini kamaytirishga harakat qilish kerak. Chunki majburiy ravishda sotiladigan valyutaning foizi qanchalik kam bo'lsa, korxona va tashkilotlar ixtiyorida shunchalik ko'p valyuta mablag'i qoladi. Bu esa, o'z navbatida, korxona va tashkilotlarning kengaytirishga hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga turtki bo'ladi.

3. O'zbekiston Respublikasi audit milliy andozasi №70-«Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot bo'yicha auditor xulosasi» andozasiga qo'shimcha ravishda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgani kabi tushuntirish qismi mavjud auditorlik xulosasini amaliyotga kiritish menimcha maqsadga muvofiq bo'lardi. Sababi amaliyotda korxona moliyaviy hisoboti shakllanilayotganda chet el valyutasidagi debitorlik qarzlari bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari foyda shakllanishida muhim o'rin tutishi mumkin. Biroq qarzdor korxona bu qarzni to'lay olmasa, u korxonaga tabiiyki zarar olib kelishi mumkin yoki korxona kreditorlik qarzi bo'yicha salbiy kurs farqi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining №119 Nizomiga muvofiq korxona zarar bilan chiqmasligi uchun faqat olgan foydasi bilan qoplanadigan qismigina hisobdan chiqariladi va bu ham korxona moliyaviy natijasini shakllanishida muhim hisoblanadi. Shu sababdan bu holatlarda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar bu muhim, deb hisoblangan omillardan boxabar bo'lishlari uchun auditorlar o'z hisobotlariga tushuntirish qismini kiritishlari maqsadga muvofiq bo'lardi.

Valyuta tushumiga ega korxonalarda, xususan, turistik firmalar, xalqaro darajadagi mehmonxonalarda valyuta muomalalari ustidan samarali nazoratni ta'minlashda asosiy e'tiborni ichki auditorlar ishiga qaratmog'i lozim. Demoqchimanki, ushbu turdagi korxonalarda valyuta muomalalari ustidan uzluksiz nazorat olib borishda ichki auditorlar xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, korxona tashqi auditdan o'tayotganda, tabiiyki, tashqi auditorlar uchun ichki auditorlar ishini baholash va ular ishi natijalaridan foydalanish lozim bo'ladi. Bu esa shu turdagi korxonalarda ichki auditorlar ishini xam audit milliy standartlari asosida tashkil qilishni taqozo etadi

Hozirgi sharoitda hisob amaliyotida xorijiy valyutalarda qiymati aks ettiriladigan qimmatli qog'ozlarni hisobga olishning yordamchi xujjatlari mavjud bo'lmaganligi sababli ba'zi bir korxonalarda ushbu vaziyatda kassa kirim orderi asosida ro'yxatga olish hollari ham uchrab turibdi. Vaholanki kassa kirim orderi faqatgina naqd xorijiy valyutadagi pullarni kirim qilish uchun ishlatilishi mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olib, xorijiy valyutalarda qiymati aks ettirilayotgan qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobiga kirim qilish uchun "Qimmatli qog'ozlarni kirim qilish xujjati"ni ishlab chiqish lozim. Ushbu hujjat xorijiy valyutalardagi qimmatli qog'oz uchun moddiy javobgarlikning shu bitimni ijro etayotgan shaxsdan, kassirga o'tkazilganligini qayd etish uchun zarur, xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlarning sotuvchidan oluvchiga o'tish holati oldi-sotdi dalolatnomasi bilan qayd etiladi. Xujjatsiz xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi bo'yicha birlamchi xujjatlar depo schyotidan va reestrndan ko'chirmalar bo'ladi. Ko'rsatilgan birlamchi hujjat xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlarni hisobga olishda asos bo'ladi..

Fikrimizcha ichki auditni tashkil qilish jarayonida korxona faoliyati va unda amalga oshiriladigan operatsiyalarning mazmuni va ichki xo'jalik hisobi talablaridan kelib chiqib rejalashtirish, amalga oshirish talabini belgilash. Valyuta muomalalarini tashqi auditini amalga oshirishda auditorlik tekshiruvini amalga oshirish rejasida ularning vujudga kelish joylari va ma'suliyat markazlari bilan bog'liq holda auditorlik tekshiruvini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston», 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: «Adolat », 2008 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. (Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR 13.12.2002 y. 447-II-son Qonuni, O'zR 04.04.2006 y. O'RQ-28-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR 17.09.2007 y. O'RQ-110-son Qonuni, O'zR 09.09.2009 y. O'RQ-216-son Qonuni asosida)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qaroriga ilova «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida» Nizom.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qarori - «Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida».
7. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktabrdagi 215-son qaroriga 2-ilova «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida» Nizom.
8. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 54-sonli qarori. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi PQ-1675-sonli qarori asosidagi o'zgartirishlar bilan).

9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T: «O'zbekiston», 2009.
10. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
11. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. -T.: «O'zbekiston», 2011.
12. Karimov I.A. «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati». Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. T.: «O'zbekiston»,2012.
13. Karimov I.A. «Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish». 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 2013-yil 18-yanvar. T.: «O'zbekiston»,2013.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

14. «O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami». T.: «Norma», 2010.
15. «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». 21-son BHMS. - T.: «Norma»,2010.
16. To'laxodjaeva M.M., Ilxomov SH.I., Axmadjonov K.B.va boshqalar. Audit, Darslik. I,II jild. O'z.R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: «NORMA», 2008.
17. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit tizimi. - T.: «Iqtisod-moliya», 2007.

18. Do'smuratov R.D., Fayziev SH.N. Audit. O'quv qo'llanma. I,II qism. - T.: «Iqtisod-moliya», 2008.
19. Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. - Toshkent: «Sharq», 2004.
20. Gadoev E. va boshqalar. Buxgalter uchun amaliy qo'llanma. I,II jild. - T.: «Norma», 2010.
21. G'ulomova F.G'. «Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma».– T.: «Norma», 2010.
22. Сотиволдиев А.С., Абдувохидов Ф.Т., Сатывалдыева Д.А. Финансовый и управленческий учет. -Т.: «Iqtisod-moliya», 2012.
23. Джамбакиева Г. Финансовый учет. Учебное пособие. -Т.: «Iqtisod-moliya», 2012.
24. Астахов В.П. Бухгалтерский (финансовый) учет. Учебное пособие. 9-издание. –Москва, 2009.
25. Архарова З. П. МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ АУДИТА (МСА): Учебно-методический комплекс. – М.: «ЕАОИ», 2008.
26. Булыги Р.П. Аудит: учебник –М.: «ЮНИТИ – ДАНА», - 2009 г.
27. Ерофеева В.А., Пискунов В.А., Битюкова Т.И. Аудит: учебное пособие,. – 2-е изд. перераб. и доп. – М.: «Юрайт», Высшее образование, 2010.
28. Палий В. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. Учебное пособие. – М.: «ИНФРА – М» , 2009 г.
29. Подольский В., Савин А. Сотникова Л. Международные и внутрифирменные стандарты аудиторской деятельности. Учебное пособие. – М.: «ИНФРА – М», 2010 г.
30. Суйц В. Аудит. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС ”, 2010 г. – 168 ст.
31. Справочник аудитора. – Т.: Национальное ассоциации бухгалтеров и аудиторов Узбекистана. 2007. – 179 с.
32. Pany and Whittington. Auditing. 1999, 524 p.

33. William C. Thomas. Auditing: theory and practice. Kent publishing company.
2001

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

34. «Moliya» jurnali, 2010-2012 yillar
35. Soliq va bojxona xabarlar gazetasi. –T.:2013. Yanvar-mart oylari
36. Бухгалтерский учет. Журнал.- М.: 2012-2013 йиллар.

IV. Internet saytlari.

<http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
<http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
<http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)
<http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee)
<http://www.bookboon.com>
<http://mf.uz>
<http://www.soliq.uz>
www.gaap.ru
www.accountingreforms.ru
www.alleng.ru
www.ziyonet.uz
www.tfi.uz
www.lex.uz

